


FARMATSEVIKA
INSTITUTI
TALABALARI UCHUN



O'QUV
ADABIYOTI

L.X. Bazarova, N.S. Suyundikov


LOTIN TILI



L.X. BAZAROVA, N.S. SUYUNDIKOV

LOTIN TILI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
farmatsevtika instituti «5720700 – Sanoat farmatsiyasi»
fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etgan*



Toshkent
«EXTREMUM PRESS»
2011

81.8

B21

Bazarova, L. X.

Lotin tili : farmatsevtika un-ti “5720700 - Sanoat farmatsiyasi”
fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘l. / L. X. Bazarova, N. S.
Suyundikov. - T.: Extremum press,
2011. — 176 b.
I. Suyundikov, N. S.

BBK 81.8я73

УДК : 811.124

Taqrizchilar:

X.M. Yunusova — farmatsevtika fanlari nomzodi, professor,
X.M. Komilov — farmatsevtika fanlari doktori, professor,
M. Isroilova — Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 2-tillar pedagogika
va psixologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi,
M.T. Toshxonov — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

«Lotin tili» o‘quv qo‘llanmasi farmatsevtika instituti sanoat farmatsiyasi fakulteti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi o‘quv dasturi asosida tuzilgan.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifasi talabalarga qadimgi yunon — lotin tillarining leksik va so‘z yasovchi boyliklari asosida farmatsevtik terminologiya asoslarini o‘rgatishdan iboratdir.

N664-5464/2011.

SO‘ZBOSHI

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifasi talabalarga lotin tilini o‘rgatishdan iboratdir.

Qo‘llanma 20 ta darsni va lotincha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-lotincha lug‘atni o‘z ichiga oladi. Har bir darsga 5–10 tadan fonetika, grammatika va leksikaga oid mashqlar va tarjima qilish uchun retseptlar berilgan. Mavzular farmatsevtika institutida o‘quv materiallarining o‘tilishi ketma-ketligida tanlab olingan.

Ushbu qo‘llanmani yaratish jarayonida mamlakatimizda va chet ellarda nashr etilgan darslik va qo‘llanmalardan, farmatsiyaga oid adabiyotlardan foydalanildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma farmatsevtika instituti sanoat farmatsiyasi fakulteti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi o‘quv dasturi asosida tuzilgan. Keyingi yillarda qator dorivor o‘simliklar va preparatlarning yangi nomlari qabul qilinganligi sababli bunday nomlarni o‘z ichiga olgan qo‘llanmani yaratish zamon talabi bo‘lib qolgan.

LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Lotin tili tillar hindiyevropa oilasining italian guruhiga taalluqlidir.

Qadim zamonlarda italiya hududidagi Appenin yarim oroli Latsiya viloyatida yashovchi lotin qabilasi bu tilda soʻzlashgan. Bu viloyatning poytaxti Rim shahri boʻlib, miloddan avvalgi I asrga kelib, u Rim saltanatiga aylangan.

Rim saltanati kengayib borgani sari, lotin tili uning hukmron tiliga aylanib borgan. Rim saltanati tomonidan Yunoniston (miloddan avvalgi 146- yillarda) bosib olingandan soʻng, yunon tili lotin tiliga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Chunki, Yunonistonda madaniyat yuksak darajada tashkil topgan.

Yunonlar bilan boʻlgan aloqaning boshlanishidayoq rimliklar Yunonistonning yuqori darajada rivojlangan madaniyatining ulkan taʼsirini sezganlar. Miloddan avvalgi V asrda Afinada Yevropa tibbiyoti «otasi» Buqrot (Gippokrat) yashagan va ijod qilgan. U oʻz asarlarida ilk bor ilmiy tibbiy atamalarini yozgan. Buqrot oʻzining asarlarida qoʻllagan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lugʻatga kiritilgan. Davrlar mobaynida lotin tiliga juda koʻplab yunoncha soʻzlar kirib keldi.

Oʻz negizini saqlagan holda lotinlashgan yunon atamaları asta-sekin xalqaro miqyosida tan olindi. Yunon yozuvi taʼsirida lotin alifbosi 2 harfga (y ipsilon va z (zet)) koʻpaygan.

Eramizning V asriga kelib Rim saltanati inqirozga uchraydi va uning oʻrniga hozirgi Ispaniya, Fransiya, Italiya va shunga oʻxshash boshqa davlatlar yuzaga keldi. Roman tillarining (italyan, ispan, fransuz, portugal) rivojlanish davri IX asrga toʻgʻri keladi. Roman tillariga asos vazifasini ogʻzaki lotin tili bajardi.

Oʻsha davrda adabiy lotin tili «kitobiy» til sifatida oʻz vazifasini davom ettirdi.

Oʻrta asrlar davrida lotin tilida oʻqitildi va koʻplab ilmiy asarlar yaratildi. Qadimgi yunon va arab hakimlarining asarlari lotin tiliga oʻgirildi. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) ning jahonga mashhur «Tib qonunlari» asari XII asrda lotin tiliga oʻgirilib, XVI asr oxirigacha Yevropada tibbiyotni oʻqitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi. Yevropa mamlakatlarida XVIII asrgacha lotin tili ilm-fan va maʼmuriy ishlarida ishlatib kelingan. Lekin XIX asrga kelib lotin tili milliy tillarga oʻz oʻrnini boʻshatib berdi. Lotin tili oʻlik tilga aylangan boʻlsada, hozirgi kungacha oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Hozirgi kunda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlarida lotin tilidan keng foydalaniladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili deb tan olingan.

Qadimgi yunon va lotin tillarining leksik va soʻz yashovchi qoʻshimchalari hozirgi kunda ham minglab atamalar yasash uchun xizmat qilmoqda.

FONETIKA

1- DARS

Mavzu: **Lotin tili alifbosi. Unli harflar.
Diftonglar. Undosh harflar**

1- §. Lotin tili alifbosi

Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor.

Bosma harflar	Nomi	O'zbekcha muqobili	Bosma harflar	Nomi	O'zbekcha muqobili
A a	a	a	N n	en	n
B b	be	b	O o	o	o
C c	se	s yoki k	P p	pe	p
D d	de	д	Q q	ku	u bilan birga[kv]
E e	e	e	R r	er	r
F f	ef	f	S s	es	s
G g	ge	g	T t	te	t
H h	g'e	o'zbekcha g'yoki h	U u	u	u
I i	i	i	V v	ve	v
J j	yot	y	X x	iks	ks
K k	ka	k	Y y	ipsilon	i
L l	el	l	Z z	zet	z yoki s
M m	em	m			

2- §. Unli harflar

Lotin tilida 6 ta unli harf bor.

A a unli harfi [**a**] deb talaffuz qilinadi:

amarus [amarus] – achchiq
ana [ana] – teng miqdorda

E e unli harfi [**e**] deb talaffuz qilinadi:

gemma [gemma] – kurtak
gelatina [gelatina] – jelatin

O o unli harfi [**o**] deb talaffuz qilinadi:

odor [odor] – hid, is
os [os]-suyak

I i unli harfi [**i**] deb talaffuz qilinadi:

internus [internus] – ichki
infans [infans] – bola, go‘dak

U u unli harfi [**u**] deb talaffuz qilinadi:

unus [unus] – bir
utilis [utilis] – ishlatishga yaroqli

Y y unli harfi [**i**] deb talaffuz qilinadi:

Amygdalus [amigdalus] – bodom
polyvitamina [polivitamina] – polivitamin.

3- §. Diftonglar

Ikkita turli unli harflarning bir bo‘g‘in sifatida talaffuz etilishiga diftong deyiladi.

Lotin tilida 4 ta diftong bor:

«**au**» diftongi [au] deb o‘qiladi.

Masalan: auris [auris] – quloq
auscultare [auskultare] – eshitmoq

«**eu**» diftongi [eu] deb o‘qiladi.

Masalan: Eucommia [eukommia] – evkommiya
Eucalyptus [eukaliptus] – evkalipt

«**ae**» diftongi [e] deb o‘qiladi.

Masalan: aeger [eger] – bemor, kasal
Crataegus [krategus] – do'lana
«oe» diftongi [e] deb o'qiladi.

Masalan: Foeniculum [fenikulum] – ukrop, fenxel
oedema [edema] – shish

Agar **ae** va **oe** diftonglarida **e** harfining ustiga ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda har bir harf o'zining alohida tovushini ifoda etadi.

oë [oe] – Aloë [aloe] – aloy, sabur
aë [ae] – aër [aer] – havo.


4- §. Undosh harflar

C c – harfi ikki tovush [s] va [k]ni ifoda etadi. Agar **s** harfi **ae**, **oe** diftonglari, **e**, **i**, **y** unli harflari oldida tursa [s] deb o'qiladi.

Masalan: cito [sito] – tez
cera [sera] – mum
cyclus [siklus] – sikl
coeruleus [seruleus] – ko'k

Agar **c** harfi **a**, **o**, **u** unililari va undosh harflar oldida yoki so'z oxirida tursa [k] deb o'qiladi.

Masalan: creta [kreta] – bo'r
carbo [karbo] – ko'mir
cucurbita [kukurbita] – oshqovoq
lac [lyak] – sut



H h – harfi o‘zbekcha [g‘] harfi singari talaffuz qilinadi.

Masalan: herba [g‘erba] – o‘t, yer ustki qism
homo [g‘omo] – odam, kishi

K k – harfi [k] tovushini beradi, lekin bu harf tibbiy lotin tilida kam qo‘llaniladi:

Kalium [kalium] – kaliy
Keratinum [keratinum] – keratin

L l – harfi yumshoq talaffuz qilinadi:

mel [mel] – asal
lac [lyak] – sut

X x – harfi [ks] tovushini beradi:

pix [piks] – smola, qatron
faex [feks] – xamirturush

Z z – harfi yunonchadan o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi va [z] deb talaffuz qilinadi:

rhizoma [rizoma] – ildizpoya
Glycyrrhiza [glitsiriza] – qizilmiya, shirinmiya

Lekin zincum so‘zida z harfi [s] deb o‘qiladi:

Zincum [sinkum] – rux


J j – harfi **a, o, e, u** unli harflari bilan birgalikda quyidagicha o‘qiladi:

jo [yo] – jocus [yokus] – hazil
ja [ya] – janua [yanua] – eshik
ju [yu] – juniperus [yuniperus] – archa
je [ye] – jecur [yekur] – jigar

S s – harfi ikki tovushni [z] va [s]ni ifodalaydi. Agar s harfi ikki unli harf o‘rtasida yoki har qanday bir unli bilan **m** yoki **n** harflari o‘rtasida kelsa [z] deb, boshqa hollarda [s] deb o‘qiladi.

Masalan: dosis [dozis] – doza
Rosa [roza] – na‘matak
mensis [menzis] – oy

reumatismus [reumatizmus] – revmatizm
Solanum [solanum] – ituzum



Mashqlar

1. Diftonglarning o'qilishiga e'tibor berib so'zlarni o'qing.

Aërosolum, auctor, anaemia, oedema, praescribo, Foeniculum, aurum, graecus, saepe, oestrogenus, faex, auris, praeparatum, Crataegus, Eucommia, foetidus, Synoestrolum, aeger, aër.

2. Undosh harflarning o'qilishiga e'tibor berib so'zlarni o'qing va o'qilish qoidasini tushuntiring.

Decoctum, acidum, capsula, Glucosum, scatula, briketum, semen, junius, hypnoticus, jam, Ledum, herbaceus, dystonia, hydricus, insolubilis, amurensis.

3. Quyidagi so'zlarni o'qing va c harfining o'qilishini tushuntiring.

Tinctura, fructus, succus, cella, cera, galenicus, bacca, calor, cito, locus, Capsicum, acidum, officina, coeruleus, Cortisonum, bacillus, medicinalis, medicamentum, caecum.

4. So'zlarni o'qing va s harfining o'qilishini tushuntiring.

Spissus, species, destillatus, dens, morbus, elasticus, dystonia, latus, emulsum, internus, amarus, dysenteria, massa, resina, reumatismus, Cortisonum, Vaselinum.

Uyga vazifa

1. Lotin tili alifbosini yod o'ling.

II. Unli va undosh harflar, diftonglarning o‘qilishini eslab qoling va quyidagi savollar yordamida o‘zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor va ular qanday talaffuz qilinadi?
2. Diftong deb nimaga aytiladi va qanday diftonglarni bilasiz?
3. C harfi qanday tovushlarni ifodalaydi?
4. S harfi qanday o‘qiladi?
5. j harfi a, o, u, e unli harflari bilan birgalikda qanday talaffuz etiladi?
6. h, l, k, x, z harflarining o‘qilish qoidasini ayting.

III. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypericum, acidum, haemostaticus, cito, omissis, praeparatum, plasma, major, oestrogenus, juvenus, lacteus, Glycerinum, extractum, Cuprum, scabies, oleosus, coeruleus, Ledum, graeca, baccae, Vikasolum, aeger.

2- DARS

**Mavzu: Harf birikmalarining o‘qilishi. Digraflar.
So‘zlarning bo‘g‘inlarga bo‘linishi.
Bo‘g‘inlarning cho‘ziqlik va qisqalik qoidalari.
Urg‘u**

5- §. Harf birikmalarining o‘qilishi

qu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [**kv**] deb o‘qiladi:

aqua [akva] – suv

Quercus [kverkus] – dub, eman

ngu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [**ngv**] deb o‘qiladi:

unguentum [ungventum] – surtma

lingua [lingva] – til

su – harf birikmasi **a, e** unli harflari oldidan kelganda [**sv**] deb o‘qiladi. Qolgan hollarda esa [**su**] deb o‘qiladi:

suasor [svazor] – maslahatchi

suillus [suillus] – cho‘chqa – i (-si)

ti – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [**si**] deb o‘qiladi:

solutio [solutio] – eritma

injectio [inyeksio] – in‘yeksiya

ti – harf birikmasi **x, s** undosh harflaridan keyin kelsa [**ti**] deb o‘qiladi:

mixtio [mikstio] – aralashma

combustio [kombustio] – kuyish

sch – harf birikmasi [**sx**] deb o‘qiladi:

Schizandra [sxizandra] – limonnik.

6- §. Digraflar

Digraf deb ikkita undosh harf birikmasining bitta tovush singari talaffuz etilishiga aytiladi.

Lotin tilida 4 ta digraf bor. Har bir digrafda **h** harfi mavjud.

ch – digrafi [**x**] deb talaffuz qilinadi:

Chininum [xininum] – xinin

charta [xarta] – qog‘oz

ph – digrafi [**f**] deb talaffuz qilinadi:

pharmacologia [farmakologia] –
farmakologiya

Morphinum [morfinum] – morfin

rh – digrafi [**r**] deb talaffuz qilinadi:

Rhamnus [ramnus] – tog‘ jumrut

rhizoma [rizoma] – ildizpoya

th – digrafi [**t**] deb talaffuz qilinadi:

Mentha [menta] – yalpiz

Thermopsis [termopsis] – termopsis.

Mashqlar

1. Soʻzlarni oʻqing va oʻqilish qoidalarini tushuntiring.

Charta, Arachis, Rheum, Quercus, aether, diphthericus, lingua, solutio, camphora, Glycyrrhiza, haemostaticus, Norsulfazolum, praecipitatus, cochlear, Chamomilla, Equisetum, Mentha, aqua, axungia, extractum.

2. Soʻzlarni oʻqing va ularning transkripsiyasini yozing.

Althaea, therapia, Synoestrolum, rhizoma, Phosphorus, majalis, Terebinthina, Helianthus, coquo, frictio, Ephedra, Schizandra, Kalanchoë, saccharum, Ichthyolum.

3. C harfi [s] tovushini ifodalovchi soʻzlarni topib yozing.

Carbo, cytologia, cito, Cucurbita, calor, Citrus, bacca, baccae, decoctum, cera.

4. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va s harfining [z] tovushidek oʻqilishini tushuntiring.

Anisum, dosis, usus, Vaselineum, narcosis, mensura, gargarisma, suasor, plasma.

5. Quyidagi soʻzlarni oʻqing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypermanganas, Streptomycinum, antipyreticus, anhydricus, hypothermia, Perhydrolum, Glycosidum, Amidopyrinum, oxydum, hyperaemia, mycosis, Hydrargyrum, peroxydum.

7- §. Soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi

Lotin tilida oʻzbek tilidagidek soʻzlar boʻgʻinlarga boʻlinadi. Soʻzda qancha unli harf boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi.

Masalan: Cu-cur-bi-ta; Cha-mo-mil-la.

Tovushlar choʻziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning choʻziqligi harf ustiga toʻgʻri chiziqcha, qisqaligi esa yarim oy shaklidagi belgi qoʻyib belgilanadi:

$\bar{a} \check{a}, \bar{o} \check{o}, \bar{e} \check{e}$

Tovush va bo'g'inlarni uzun yoki qisqaligini to'g'ri aniqlay bilish urg'uni (') qo'yish uchun kerak.

Cho'ziq unli tovushli bo'g'in – cho'ziq bo'g'in, qisqa unli tovushli bo'g'in – qisqa bo'g'in hisoblanadi.

8- §. Bo'g'inlarning cho'ziqlik va qisqalik qoidalari

Cho'ziqlik qoidasi

1. Agar bo'g'inida diftong bo'lsa, o'sha bo'g'in doimo cho'ziq bo'ladi:

Crataēgus

2. Agar unli harf ikki yoki undan ortiq undosh harflar oldida kelsa, shu bo'g'in cho'ziq o'qiladi:

tabulētta

3. x yoki z undosh harflari oldida kelgan unli tovush cho'ziq o'qiladi:

Glycyrrhīza

4. in, ur, at, ar, ut, os, al qo'shimchali bo'g'inlar cho'ziq o'qiladi:

vitamīnum,
tinctūra,
nitrātis,
gelatinōsis.

Qisqalik qoidasi

1. Unli harf oldidan unli harf kelsa, bu bo'g'in qisqa o'qiladi:

injectiō

2. Digraflar oldida kelgan unli harf qisqa o'qiladi:

Arăchis

3. **ol, ul, ib, id, il** harf birikmalari bo'lgan bo'g'in qisqa o'qiladi:

fluīdus,

pilūla,

solubīlis

4. **b, p, d, t** harflari **r** yoki **l** harflari bilan birikib kelganda bu harf birikmalaridan oldin turgan unli harf qisqa o'qiladi:

Ephēdra,

vertēbra

5. **h** harfi oldida kelgan unli qisqa talaffuz qilinadi:

extrāho.

9- §. Urg'u

Lotin tilida urg'u so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi.

ex-trāc-tum

ver-tēb-ra

co-la-tū-ra

pi-lū-la.

Mashqlar

6. *So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va urg'u qo'ying.*

emplastrum, cella, barium, mixtio, acidum, oleum,
Tormentilla, folium, saccharum, Oxycoccus, scatula,

ampulla, bacterium, intravenosus, solutio, Foeniculum, pharmacopoea, milligramma, tinctura, Potentilla, spiritus, Convallaria, gargarisma, extraho, linimentum, decoctum, medicina, bulbus.

7. Quyidagi soʻzlarni urgʻu qoidasiga rioya qilib oʻqing.

Suppositorium, Ephedra, sirupus, Oryza, butyrum, Eucommia, Betula, aqua, Frangula, globulus, Althaea, Belladonna, injectio, Penicillinum, amyllum, vitaminum, magister, unguentum, tabuletta, aquosus, signatura.

Uyga vazifa

I. Harf birikmalari, digraflarning oʻqilishi, soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi; boʻgʻinlarning choʻziqlik va qisqalik qoidalarini va urgʻu qoʻyish qoidasini eslab qoling. Quyidagi savollar yordamida oʻzlashtirgan bilimlaringizni tekshirib koʻring.


1. **qu** va **nqu** harf birikmalari qanday oʻqiladi?
2. **ti**, **su** va **sch** harf birikmalari qanday oʻqiladi?
3. Digraf deb nimaga aytiladi va qanday digraflarni bilasiz?
4. Lotin tilidagi soʻzlar boʻgʻinlarga qanday boʻlinadi?
5. Boʻgʻinlarning choʻziqlik qoidasini ayting.
6. Boʻgʻinlarning qisqalik qoidasini ayting.
7. Lotin tilida urgʻu qaysi boʻgʻinga qoʻyiladi?

II. Quyidagi soʻzlarni oʻqing!


Scatula, Tetracyclinum, Aloës, rhus, Allium, medicamentum, coeruleus, Myrtillus, Chenopodium, aesculus, Oxygenium, Rhamnus, vaccinum, xeroformium, Sinapis, oculus, Absinthium, arborescens, Erythromycinum, cyclus, Hypericum, Amygdalus, Retinolum, Rosaceae, Armeniaca, Diplococcus, Gossypium, praeparatum, Streptococcus, frictio, curatio, quartus.

III. 11-mashqdagi soʻzlarni boʻgʻinlarga boʻling va urgʻu qoʻying.

IV. Urg'u qoidasiga binoan quyidagi jadvalni to'ldiring.



Urg'u



TOSHKENT FARMATSEVIKA
No 4/1275
KITUBXONA

MORFOLOGIYA

3- DARS

Mavzu: **Ot. I turlanishdagi otlar**

10- §. Ot

Predmet nomini bildirib, *kim?* yoki *nima?* savollariga javob beradigan soʻz turkumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar uchta rodga ega:

genus masculinum – mujskoy rod

genus femininum – jenskiy rod

genus neutrum – sredniy rod.

Lugʻatda otlar maxsus harflar bilan belgilanadi:

m – mujskoy rod

f – jenskiy rod

n – sredniy rod.

Lotin tilida otlar ikkita songa ega:

Numerus Singularis – birlik son

Numerus Pluralis – koʻplik son.

Lotin tilida otlar beshta kelishik boʻyicha turlanadi:

Casus Nominativus – bosh kelishik – kim? nima?

Casus Genetivus – qaratqich kelishigi – kimning? nimaning?

Casus Dativus – joʻnalish kelishigi – kimga? nimaga?

Casus Accusativus – tushum kelishigi – kimni? nimani?

Casus Ablativus – chiqish kelishigi – kimdan? nimadan?

Otlar lotin tilida beshta turlanishga bo‘linadi. Turlanish turi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**)ning birlik sonidagi qo‘shimchasi yordamida aniqlanadi. Turlanishlarning qaratqich kelishik birlik sonidagi qo‘shimchalarini eslab qoling:

Turlanish	Gen. Sing. qo‘shimchalari
I	ae
II	i
III	is
IV	us
V	ei

Otlar turlanishlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I turlanish	Jenskiy rod		
II turlanish	Mujskoy rod	Sredniy rod	
III turlanish	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
IV turlanish	Mujskoy rod	Sredniy rod	
V turlanish	Jenskiy rod		

Lug‘atda otlar bosh kelishik, birlik sonda yoziladi, keyin qaratqich kelishigining qo‘shimchasi va rodi ko‘rsatiladi:

gutta, ae, f – I turlanishdagi ot

globulus, i, m – II turlanishdagi ot

flos, is, m – III turlanishdagi ot

usus, us, m – IV turlanishdagi ot

res, ei, f – V turlanishdagi ot

Otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda ot negiziga kelishik qo'shimchalari qo'shiladi. Otning negizini topish uchun qaratqich kelishik birlik soni shaklidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak:

Turlanish	Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi
I	gutta	guttae	gutt
II	sirupus	sirupi	sirup
III	liquor	liquoris	liquor
IV	fructus	fructus	fruct
V	species	speciei	speci

Mashqlar

1. Quyidagi otlarni o'qing va ularning rodini aniqlang.

Amylum, n; flos, m; cera, f; piper, n; sirupus, m; mucilago, f; usus, m; emulsum, n; species, f; tinctura, f; gutta, f; bacillus, m.

2. Quyidagi otlarning turlanishini va rodini ayting.

decoctum, i, n; charta, ae, f; species, ei, f; numerus, i, m; quercus, us, f; cera, ae, f; folium, i, n; carbo, is, m; cornu, us, n; stigma, is, n.

3. IV turlanishdagi otlarni toping.

- 1) aqua, ae, f
- 2) spiritus, us, m
- 3) succus, us, m
- 4) oleum, i, n
- 5) gelu, us, n
- 6) vertebra, ae, f
- 7) res, ei, f
- 8) fructus, us, m

4. Jenskiy roddagi otlarni ko'rsating.

- 1) Oryza, f

- 2) os, n
- 3) manus, f
- 4) sorbus, f
- 5) hortus, m
- 6) Salep, n

5. II turlanishidagi otlarni ko'rsating.

- 1) globulus, i,m
- 2) habitus, us,m
- 3) sirupus, i, m
- 4) morbus, i, m
- 5) exitus, us, m
- 6) succus, i, m

6. II turlanishdagi sredniy roddagi otlarni ko'rsating.

- 1) Magnolia, ae, f
- 2) Ferrum, i, n
- 3) aegrotus, i, m
- 4) cornu, us, n
- 5) decoctum, i, n
- 6) ampulla, ae, f
- 7) Secale, is, n
- 8) acidum, i, n

7. Quyidagi Genetivus Singularis da berilgan otlarni ko'chirib yozing, negizini toping va turlanishini ko'rsating.

Guttae, dosis, infusi, usus, emplastri, decocti, officinae, carbonis, gustus, scabiei.

Namuna:

Gen. Sing.	Negizi	Turlanishi
plantae	plant	I

8. Quyidagi otlarni turlanishlari va rodlari bo'yicha ustunlarga yozing.

Belladonna, ae, f; Iodum, i, n; tussis, is, f; herba, ae, f; cutis, is, f; Urtica, ae, f; glacies, ei, f; Linum, i, n; habitus,

us, m; Oxycoccus, i, m; charta, ae, f; acus, us, f; remedium, i, n; diagnosis, is, f; acetum, i, n; dies, ei, f; hibes, is, n; species, ei, f.

11- §. I turlanishdagi otlar

I turlanishdagi otlarga bosh kelishik (**Nominativus Singularis**) da **-a**, qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**)da **-ae** qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

I turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	a	ae
Gen.	ae	arum
Dat.	ae	is
Acc.	am	as
Abl.	a	is

Turlanish namunasi

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	herba	herbae
Gen.	herbae	herbarum
Dat.	herbae	herbis
Acc.	herbam	herbas
Abl.	herba	herbis

Lotin farmatsevtika atamashunosligida dorivor o'simliklar va dori preparatlarining nomi bosh harf bilan yoziladi.

Valeriana, ae, f
Analginum, i, n.

12- §. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

tinctura, ae, f – nastoyka
mixtura, ae, f – mikstura
cera, ae, f – mum
aqua, ae, f – suv
tabuletta, ae, f – tabletka
herba, ae, f – o‘t, yer ustki qismi
pilula, ae, f – hab dori
planta, ae, f – o‘simlik
gutta, ae, f – tomchi
gemma, ae, f – kurtak
glandula, ae, f – bez
Tilia, ae, f – jo‘ka
Valeriana, ae, f – valeriana
Betula, ae, f – qayin
Farfara, ae, f – oqqaldirmoq
Convallaria, ae, f – marvaridgul
Senna, ae, f – sano
Mentha, ae, f – yalpiz
Belladonna, ae, f – belladonna
Calendula, ae, f – tirnoqgul
Schizandra, ae, f – limonnik
Arnica, ae, f – arnika
Chamomilla, ae, f – moychechak
Urtica, ae, f – chayono‘t

Mashqlar


9. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.*

Suv, nastoyka, mum, o‘t, kurtak, bez.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
planta – o‘simlik	I	f	plantae – o‘simlikning	plantae – o‘simliklar	plantarum – o‘simliklar- ning

10. «Ot» mavzusi bo‘yicha berilgan klasterni davom ettiring.



Uyga vazifa

I. «Ot va I turlanishdagi otlar» mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida o‘zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

- 1) Ot deb nimaga aytiladi?
- 2) Lotin tilidagi otlar nechta rodga ega va ular lotincha qanday nomlanadi?
- 3) Lotin tilidagi otlar nechta kelishik bo‘yicha turlanadi?
- 4) Lotin tilidagi otlar nechta songa bo‘linadi?
- 5) Kelishiklarning lotincha nomlarini ayting.
- 6) Otlarning turlanishi qanday aniqlanadi?
- 7) I-turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?

II. Jadval yordamida yalpiz, mum, o'simlik so'zlarini tarjima qiling.

III. 12-§ dagi so'zlarni yod oling.

IV. Chap ustundagi so'zlarning o'ng ustundagi muqobilini toping.

- | | |
|---------------|---------------|
| 1) aqua | a) nastoyka |
| 2) gemma | b) o'simlik |
| 3) tinctura | c) bez |
| 4) Betula | d) suv |
| 5) Tilia | e) chayono't |
| 6) Chamomilla | f) jo'ka |
| 7) glandula | g) qayin |
| 8) planta | h) yalpiz |
| 9) Urtica | i) moychechak |
| 10) Mentha | j) kurtak |

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Adelphan, Adcortlyl, Alvenol, Beclotaide, Barbitural, Asamid, Calciferolum, Bilizorin, Decacort, Tioctan, Bio-gastrone, Cinophen, Codethyline, Jometan, Fluvoxamine, Sydnophenum, Lithii carbonas, Lithii oxybutyras, Sedalgin, Pyracetam, Aminalonum, Pantogamum, Pentaryt, Dimoestrolum, Dicaris, Deferoxaminum, Enferfram, Ethylmorphin, Gamorex, Galanthaminum, Ferrosi sulfas, Hypophen, Salacetin, Isacen, Malarex, Kolpolyn, Mentholum, Moxolon, Myarsemin, Nitrinal, Normabrain, Zymosani, Pyrantelum, Silibancol, Sulfapyridazinum, Thorazine.

VI. Quyidagi hikmatli so'z iboralari va maqollarni yod oling.

1. Invia est in medicina via sine lingua latina. –
Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.
2. Labor omnia vincit. –
Mehnat hamma narsani yengadi.

4- DARS

Mavzu: Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchili atamalarni tarjima qilish

13- §. Aniqlovchi

Lotin tilida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar qoʻllaniladi. Moslashgan aniqlovchi sifat bilan ifodalanadi va aniqlanuvchi soʻz bilan bir xil rod, son va kelishikda turadi. U «*qanday?*» «*qanaqa?*» degan savollarga javob beradi.

oq mum

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi va «*nimaning?*» degan savolga javob beradi.


valeriananing nastoykasi (valeriana nastoykasi)

Farmatsevtika atamashunosligida atamalarning ikki asosiy turini ajratish mumkin:

1. moslashgan aniqlovchili atama;
2. moslashmagan aniqlovchili atama.

Atamalarning har bir turiga shartli tasvir tuzish mumkin:


1. Moslashgan aniqlovchili atama:



Otni O, sifatni S deb belgilaymiz. Atamaning shartli tasviri quyidagicha boʻladi:

O → S (Nom.)

2. Moslashmagan aniqlovchili atama:




Mashq

1. Quyidagi atamalarning shartli tasvirini tuzib, ularning qanday aniqlovchili atama ekanligini aniqlang.

Yalpiz suvi, cho'ktirilgan oltingugurt, qaytarilgan temir, jelatinli kapsula, isitmani tushiradigan mikstura, amidopirin tabletkasi, qayin kurtagi, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, oqqaldirmoq barglari, novokain eritmasi, analgin tabletkasi.

14- §. Moslashmagan aniqlovchili atamalarni tarjima qilish

Atamani tarjima qilish uchun avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Shartli tasvirga ko‘ra, birinchi ot «nastoyka»ni lotin tiliga tarjima qilganda bosh kelishikda, ikkinchi ot «valeriana»ni qaratqich kelishikda yozishimiz kerak.

Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Valerianae

Moslasmagan aniqlovchili atamani kelishiklar bo‘yicha turlaganda faqat aniqlanuvchi so‘z o‘zgarib, moslasmagan aniqlovchi esa o‘zgarmasdan qoladi.

Nom. tinctura Valerianae

Gen. tincturae Valerianae.

15- §. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

officina, ae, f – dorixona
ampulla, ae, f – ampula
capsula, ae, f – kapsula
pasta, ae, f – pasta
spongia, ae, f – gubka
membranulla, ae, f – parda
camphora, ae, f – kamfora
colla, ae, f – yelim
cella, ae, f – hujayra
Althaea, ae, f – gulhayri
Aralia, ae, f – araliya
Salvia, ae, f – mavrak
Frangula, ae, f – frangula
Oliva, ae, f – zaytun
Rosa, ae, f – na‘matak
Bistorta, ae, f – ilonsimon toron
Amygdala, ae, f – bodom

Yunonchadan o‘tgan so‘zlarni yod oling!

Aloë, ës, f – aloy

Hippophaë, ës, f – chakonda
Kalanchoë, ës, f – kalanxoy

Mashqlar


2. Quyidagi atamalarning qanday aniqlovchili atama ekanini aniqlang va ularning shartli tasvirini tuzing.

Valeriana nastoykasi, achchiq nastoyka, gazako‘t nastoykasi, jelatinli kapsula, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, navokain eritmasi, analgin tabletkasi, zaytun moyi, sariq surtma.

3. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) tirnoqgul nastoykasi
- 2) yalpiz suvi
- 3) qayin kurtaklari
- 4) marvaridgul yer ustki qismi

Namuna:



Nom. tinctura Urticae

Gen. tincturae Urticae.

4. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

Tinctura Valerianae, tinctura Urticae, tinctura Schizandrae,
herba Ephedrae, herba Menthae, tinctura Belladonnae.

16-§. Retsept va uning tuzilishi

Retsept – shifokorning dori tayyorlash kerakligi to‘g‘risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi.

Retsept so‘zi «**receptum**» – «olingan» so‘zidan kelib chiqqan.

Retsept rasmiy hujjat bo‘lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to‘g‘riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir. Retseptlar yagona nusxali maxsus varaqalarda aniq va ravshan yozilgan bo‘lishi lozim. Retseptlardagi so‘zlarni tuzatish yoki o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Retsept quyidagi qismlardan iborat:

1. Davolash muassasasining manzili va telefon raqami.
2. «Bolalar uchun» yoki «Kattalar uchun» belgilari.
3. Retsept yozilgan kun, oy, yil.
4. Bemorning ismi, sharifi va yoshi.
5. Shifokorning ismi sharifi.
6. Kasallik tarixi.
7. Dorining nomi va miqdori.
8. Farmatsevtga ko‘rsatma.
9. Dorini qabul qilish usuli.
10. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.

Retseptning yettinchi qismi lotincha qismi bo‘lib, u **Recipe** – ol (recipere – olmoq fe‘lining buyruq shakli) so‘zidan boshlanadi. **Recipe** – so‘zidan keyin yozib berilayotgan dori tarkibiga kiradigan dori moddalarining nomi yoziladi. Har bir ingrediyeentning nomi qaratqich kelishikda yangi satrdan bosh harf bilan yoziladi.

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml
Tincturae Convallariae 15 ml

Agar ikki dori moddasining miqdori bir xil bo‘lsa, unda ikkinchi dori nomidan keyin **ana** – teng miqdorda (qisqacha **āā**) so‘zi yozilib, so‘ngra dori miqdori ko‘rsatiladi:

Recipe: Tincturae Convallariae
Tincturae Valerianae ana 10 ml

Grammlar va millilitrlar arab raqamlari bilan ko'rsatib yoziladi: 4,0; 0,5; 0,01 va boshqalar.

Tomchilar miqdori rim raqamlari bilan ko'rsatiladi. **gtt. V** (guttas – tomchilar).

Dori moddalarining biologik ta'sir birligi qisqacha BT shaklida, soni esa arab raqamlari bilan yoziladi.

Retseptning lotincha qismi **Da** – ber, **Signa** – belgila so'zlari bilan tamomlanadi.

Retseptlar oddiy va murakkab bo'ladi. Bitta ingrediya yozilgan retsept oddiy bo'ladi.

Ikkita va undan ortiq ingrediya yozilgan retseptlar murakkab hisoblanadi.

Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim bo'lsa, retsept varaqasining yuqorisiga **cito** – **tezda**, yoki **statim** – **tez**, **darhol** so'zlari yoziladi.

Mashqlar

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml
Da. Signa: 15 tomchidan kuniga 2–3 marta ichilsin.
2. Recipe: Tincturae Schizandrae 50 ml
Da. Signa: 15 tomchidan kuniga 3 marta ichilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Valeriana nastoykasi
Ber. Belgila: Kuniga 20 tomchidan 3 marta ichilsin.
2. Ol: Yalpiz nastoykasi
Ber. Belgila: Kuniga 20 tomchidan 3 marta ichilsin.

RETSEPT VARAQASINING NAMUNASI

<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div> <p>(davolash-profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtampi o'rni)</p>	<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div> <p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi lisenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>	<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div> <p>(davolash-profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'rsatilgan shtampi o'rni)</p>	<div style="border: 1px solid black; width: 100%; height: 100%;"></div> <p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi lisenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>
RETSEPT		RETSEPTNING yirtma koreshogi	
Kattalarga	Bolalarga	Kattalarga	Bolalarga
(keraksizi o'chirilsin)		(keraksizi o'chirilsin)	
Retsept yozilgan sana		Retsept yozilgan sana	
Kun _____	Oy _____	Yil _____	Yil _____
Bemorning F.I.O.: _____		Bemorning yoshi: _____	
_____		_____	
_____		_____	
Shifokorning F.I.O.: _____		Shifokorning F.I.O.: _____	
_____		_____	
Kasallik tarixi № _____		Kasallik tarixi № _____	
Rp: _____		Rp: _____	
(savdo nomi)		(savdo nomi)	
(xalqaro patentlanmagan nomi)		(xalqaro patentlanmagan nomi)	
D.S. _____		D.S. _____	
_____		_____	
Shifokorning imzosi _____		Berilayotgan dori vositasining nomi va seriyasi: _____	
tel: _____		_____	
(shifokorning shaxsiy muhri o'rni)		Farmasevt xodimning F.I.O.: _____	
Retseptning amal qilish muddati _____		(imzosi)	
		(Dorixona shtampi o'rni)	

Uyga vazifa

I. «Moslashmagan aniqlovchi va retsept «mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlarinigizni tekshirib ko'ring.

- 1) Qanday aniqlovchilarni bilasiz?
- 2) Qanday aniqlovchi moslashgan aniqlovchi deb aytiladi?
- 3) Qanday aniqlovchi moslashmagan aniqlovchi deb aytiladi?
- 4) Moslashmagan aniqlovchili atamalar lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
- 5) Retsept nechta qismdan iborat?
- 6) Retseptning lotincha qismi qaysi so'z bilan boshlanadi?
- 7) Retseptda dori moddalarining nomi qaysi kelishikda yoziladi?
- 8) Qanday retseptlarni bilasiz?

II. 15-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Quyidagi atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) gulxayri nastoykasi
- 2) yalpiz o'ti

IV. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Gossypolum, Adelphan, Cyclamycin, Doctonil, Elcatonim, Clemastinum, Phenobarbitalum, Trilax, Diprophyllum, Etivex, Escaserp, Pyraminalum, Iodolipolum, Xeroformium, Chlorpyraminum, Dimoestrolum, Amidopyrinum, Mam-mophysinum, Sulfabutin, Suxilep, Abbocort, Thalazol, Urotropinum, Asthmotinum, Azaphenum, Unazid, Chlor-diazepoxidum, Brinaldix, Ulcedon, Ufimox, Barbitalum-natrium, Nitroglycerinum, Raunatinum, Ammifurinum, Benzonalum, Cinniprine.

V. Quyidagi maqol va hikmatli so'zlarni yod oling!

1. Non est medicina sine lingua latina. –
Lotin tilisiz tibbiyotni tassavur etib bo'lmaydi.
2. Patriam amare et defendere debemus. –
Vatanimizni sevishimiz va himoya qilishimiz kerak.

**Mavzu: II turlanishdagi otlar.
Mujskoy va sredniy roddagi otlar**

17- §. II turlanishdagi otlar

II turlanishdagi otlarga **Genetivus Singularisda** – **i** qo‘shimchasiga ega bo‘lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Bu otlar **Nominativus Singularisda** mujskoy rodda kirsam **-us, -er**, sredniy rodda kirsam **-um** qo‘shimchasiga ega bo‘ladi.

sirupus, i, m – sharbat

puer, i, m – o‘g‘il bola

folium, i, n – barg.

**II turlanishdagi otlarning kelishik
qo‘shimchalari**

Causus	Sing.		Plur.	
	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>
Nom.	us, er	um	i	a
Gen.	i	i	orum	orum
Dat.	o	o	is	is
Acc.	um	um	os	a
Abl.	o	o	is	is

Turlanish namunasi

Causus	Sing.	Plur.
Nom.	succus	succi
Gen.	succi	succorum
Dat.	succo	succis
Acc.	succum	succos
Abl.	succo	succis

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	infusum	infusa
Gen.	infusi	infusorum
Dat.	infuso	infusis
Acc.	infusum	infusa
Abl.	infuso	infusis

18- §. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

sirupus, i, m – sharbat
 succus, i, m – shira
 numerus, i, m – son
 globulus, i, m – sharcha
 folium, i, n – barg
 oleum, i, n – moy
 extractum, i, n – ekstrakt
 decoctum, i, n – qaynatma
 infusum, i, n – damlama
 unguentum, i, n – surtma
 linimentum, i, n – suyuq surtma
 briketum, i, n – briket
 emulsum, i, n – emulsiya
 emplastrum, i, n – malham
 suppositorium, i, n – shamcha
 granulum, i, n – granula
 remedium, i, n – vosita; dori – darmon
 saccharum, i, n – qand, shakar
 Leonurus, i, m – arslonquyruq
 Helianthus, i, m – kungaboqar
 Strychnos, i, m – kuchala daraxti
 Strophanthus, i, m – strofant

Lagochilus, i, m – bozulbang, lagoxilus
 Ricinus, i, m – kanakunjut
 Peganum (i) harmala(ae) – isiriq
 Rheum, i, n – ravoch
 Foeniculum, i, n – ukrop, fenxel

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning rodini va kelishigini aniqlang.

1. infusa
2. succi
3. foliorum
4. extractum
5. baccae
6. tinctura
7. sirupus
8. sacchara

2. Jadval yordamida otlarni bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini yozing.

Suv, shira, sharbat, moy, barg.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
granulum – granula	II	n	granuli – granulaning	granula – granulalar	granulorum – granulalarning

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Folium Belladonnae, herba Leonuri, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, extractum Convallariae, extractum Strychni, tinctura Rhei, tinctura Valerianae, oleum Hippophaës.

4. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qayin bargi
- 2) mavrak barglari

- 3) oqqaldirmoq barglari
- 4) gulxayri sharbati
- 5) zaytun moyi
- 6) qand sharbati
- 7) sano damlamasi
- 8) bodom moyi

5. Quyidagi zanjirdan II turlanish sredniy roddagi otlarni toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.

**SIRUP USTRYCHNOSTILUSACCHAR
UMYRTILLUSUCCUSERUMEDICAME
NTUMEDICUSTROPHANTHUS.**

6. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Strychni 5 ml
Tincturae Convallariae 10 ml
Misc. Da.
Signa: 10 tomchidan kuniga 2–3 marta ichilsin.
2. Recipe: Infusi herbae Leonuri 15,0: 200 ml
Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.
3. Recipe: Emulsi olei Ricini 180,0
Sirupi sacchari ad 200,0
Misc. Da.
Signa: 2 osh qoshiqdan ich surguncha
har soatda ichilsin.
4. Recipe: Infusi foliorum Urticae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: 3–4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin
5. Recipe: Decocti foliorum Farfarae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: Har 3–4 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Strofant nastoykasi 5 ml
Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi 10 ml

- Aralashtir. Ber.
Belgila: 20 tomchidan kuniga 2–3 marta ichilsin.
2. Ol: Arslonquyruq nastoykasi 50 ml
Ber.
Belgila: 30 tomchidan kuniga 2 marta ichilsin.
3. Ol: Kungaboqar moyi emulsiyasi 480,0
Kamfora 2,0
Qand sharbati 10,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Sano bargi damlamasi 10,0:150 ml
Ravoch sharbati 30 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Ertalab va kechqurun 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanishdagi otlar. Mujskoy va sredniy roddagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
- 2) Mujskoy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?
- 3) Sredniy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?
- 4) Mujskoy roddagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo'shimchalarga ega?
- 5) Sredniy roddagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo'shimchalarga ega?

II. 18-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) oleum

a) shamcha

- | | |
|------------------|-----------------|
| 2) folium | b) damlama |
| 3) Rheum | c) sharbat |
| 4) suppositorium | d) qaynatma |
| 5) sirupus | e) surtma |
| 6) succus | f) moy |
| 7) unguentum | g) suyuq surtma |
| 8) decoctum | h) ravoch |
| 9) infusum | i) shira |
| 10) linimentum | j) barg |

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing: shakar, malham, shira, kurtak.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
folium – barg	II	n	folii – bargning	folia – barglar	foliorum – barglarning

V. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ravoch sharbati
- 2) kanakunjut moyi
- 3) gazanda barglari

VI. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Ol: Ukrop suvi 200 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 5–6 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Ol: Mavrak barglarining damlamasi 20,0:200 ml

Ber.

Belgila: Chayqash uchun.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Xeroformium, Dermatolum, Magnesii oxydum, Magnesii subcarbonas, granulae «Calmaginum», Calcii carbonas

praecipitatus, Plumbi acetas, folia Menthae piperitae, Mentholum, balsamum «Stella auraria», fructus Capsici, unguentum contra congelationem, Capsitrium, linementum Capsici camphoratum, emplastrum Capsici, succus Plantaginis, Plantaglucidum, folia Menyanthidis trifoliata, Forlax, chloroformium, linimentum Chloroformii compositum, Chlorobutanoli hydras, Bisacodyl, aërosolum «Camethonum», unguentum «Antipsoriaticum», Norgalax, solutio Ammonii caustici, tabelettæ» Apiphorum», Apisartron, Vipraxinum pro injectionibus, Najaxinum, Viprosalum, cortex Frangulae, Alnus, Antrasenninum, Senadexinum, Senade, Cafiolum, Regulax, Laminaria saccharina, Phenolphthaleinum, Isapheninum, Guttalax, sal carolinum factitium, oleum Vaselini, suppositoria cum Glycerino, fructus Anethi graveolentis, Simethicone.

6- DARS

**Mavzu: II turlanish jenskiy roddagi otlar.
Dorivor preparatlar nomi.
Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar**

19- §. II turlanish jenskiy roddagi otlar

Istisno tariqasida II turlanishga jenskiy roddagi ba'zi bir otlar kiradi.

Bular:

1. Daraxt va butalar nomi: Alnus, i, f.

2. Yunonchadan o'tgan to'rtta so'z:

bolus, i, f; methodus, i, f; periodus, i, f; crystallus, i, f.

Jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha II turlanishdagi mujskoy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	periodus	periodi
Gen.	periodi	periodorum
Dat.	periodo	periodis
Acc.	periodum	periodos
Abl.	periodo	periodis

20- §. Dorivor preparatlar nomi

Dorivor preparatlarning nomi asosan II turlanish sredniy roddagi otlar bo‘lib, ular **Nominativus Singularis** da **-um**, **Genetivus Singularis** da **-i** qo‘shimchasiga ega.

Masalan: Dermatolum, i, n – dermatol
Analginum, i, n – analgin.

21- §. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar

Ba‘zan dorivor preparatlar nomida shu dorini yaratgan mualliflarning familiyasi uchrab turadi. Ayollar familiyasi I turlanish, erkaklar familiyasi II turlanish otlari singari turlanadi.

Masalan: liguor Burovi – Burov suyuqligi
tabulettae Carmanovae – Karmanova tabletkalari

Ba‘zi familiyalar kelishiklar bo‘yicha turlanmaydi.

Masalan: species Zdrenco – Zdenko yig‘masi
unguentum Wilkinsoni – Vilkinson surtmasi.

22- §. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

amylum, i, n – kraxmal
Anisum, i, n – arpabodiyon, anis
Millefolium, i, n – boʻymadaron
Hypericum, i, n – qizilpoycha, sariqchoy
Capsicum, i, n – qalampir
Taraxacum, i, n – qoqi
Hyoscyamus, i, n – mingdevona
Uva(ae) ursi, i, n – toloknyanka
Viburnum, i, n – kalina, bodrezak
Amygdalus, i, f – bodom
Eucalyptus, i, f – evkalipt
Crataegus, i, f – doʻlana
Persicum, i, n – shaftoli
Triticum, i, n – bugʻdoy
Trifolium (i) fibrinum (i) – uch barg
Oleum (i) Ricini – kanakunjut moyi
Glucosum, i, n – glukoza
Glycerinum, i, n – glitserin
Lanolinum, i, n – lanolin
Vaselinum, i, n – vazelin
Butyrolum, i, n – butirol
dragee (koʻplikda dragees) – draje (turlanmaydi)
Oleum (i) Terebinthinae – skipidar

Mashqlar

1. *Quyidagi dorivor preparatlar nomini Nominativus Singularis va Genetivus Singularis da lotin tiliga tarjima qiling.*

Amidopirin, dermatol, novokain, kodein, fenobarbital, dibazol, rezepin, etazol, kofein.

2. *Quyidagi otlarning rodini va kelishigini aniqlang.*

1) succi

2) bolus

- 3) crystallorum
- 4) folia
- 5) tincturae
- 6) aquarum
- 7) glucosa
- 8) amyllum

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Pasta Lassari, liquor Kastelliani, solutio Lugoli, balsamum Schostacovsky, solutio Ringer-Locke, tinctura Petrovi, unguentum Koncovi, unguentum Wilkinsoni.

4. Quyidagi dorivor preparatlarining nomini Gen. Sing. da yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

Tetracyclinum, Flaminum, Riboxinum, Phytinum, Iodum, Trypsinum, Dimoestrolum, Myelosanum, Olivomycinum, Piperazinum, Cytarabinum, Ergotaminum.

5. Jadval yordamida otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini yozing.

Kraxmal, vazelin, evkalipt, glukoza, sharbat.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
pinus – qarag'ay	II	f	pini – qarag'ayning	pini – qarag'aylar	pinorum – qarag'aylar- ning

6. Quyidagi atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ekvalipt bargi
- 2) mingdevona barglari
- 3) bug'doy kraxmali
- 4) uchbarg barglari
- 5) bo'yumadaron yer ustki qismi
- 6) yod nastoykasi

7. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Olei Terebinthinae 10,0
Olei Hyoscyami 40,0
Chloroformii 3,0
Misc. Da.
Signa: Teriga surtish uchun
2. Recipe: Infusi herbae Hyperici ex 10,0:180ml
Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.
3. Recipe: Decocti foliorum Uvae ursi 10,0: 180ml
Hexamethylenetetramini 4,0
Misc. Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta ichilsin.
4. Recipe: Unguenti Prednisoloni 0,5 %. 5,0
Da.
Signa: Sirdan ishlatish uchun.

8. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Dermatol surtmasi 10 % 20,0
Ber.
Belgila: Surtma
2. Ol: Evkalipt moyi 10,0
Mentol 10,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Bug'li ingyatsiya uchun
3. Ol: Arslonquyruq yer ustki qismi damlamasi
15,0:200 ml
Ber.
Belgila: 1 osh qoshiqdan kuniga 4 marta
ichilsin.
4. Ol: Sano bargi damlamasi 10,0:150 ml
Ravoch sharbati 30 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Ertalab va kechqurun 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanish jenskiy roddagi otlar, dorivor preparatlar nomi va dorivor preparatlar nomida familiyalar» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) II turlanish jenskiy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi?
- 2) II turlanish jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
- 3) Dorivor preparatlar nomi qaysi rodga tegishli?
- 4) Dorivor preparatlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?
- 5) Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

II. 22-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Quyidagi atamalarning shartli tasvirini tuzib, *Nom.* va *Gen.* da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ravoch nastoykasi
- 2) bo'yadaron yer ustki qismi
- 3) mavrak barglari

IV. *Retseptlarni tarjima qiling.*

1. Recipe: Olei Eucalypti 2,0
Olei Terebinthinae 8,0
Misc. Da.
Signa: 15 tomchidan ingalyatsiya uchun.
2. Recipe: Infusi baccarum Juniperi ex 10,0:200 ml
Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3—4 marta ichilsin.
3. Recipe: Infusi foliorum Eucalypti ex 10,0: 200 ml
Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.
4. Ol: Kanakunjut moyi emulsiyasi 180,0
Qand sharbati 200 ml gacha
Aralashtir. Ber.

Belgila: 2 osh qoshiqdan ich surguncha har soatda ichilsin.

5. Ol: Evkalipt moyi

Arpabodiyon moyi teng miqdorda 10,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Ingalyatsiya uchun

6. Ol: Do'lana nastoykasi 20 ml

Ber.

Belgila: 20–30 tomchidan kuniga 3 marta ichilsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Acelifen, Acenocumarin, Barbamylum, Rhocillin, Barii sulfas pro roentgeno, Dimethylsulfoxid, Diprophyllin, Hypoglycamid, Intensacrom, Myosalvarsan, Norethisteron, Phosphocestrolum, Stilboestrolum, Sulphamethoxy-piridazin, Gestonoroncaproat, Menovasinum, Quinidini sulfas, Thioproperazinum, Cyclobarbitalum, Shigella dysenteriae, Shigella boydii, Shigella flexneri, Shigella sonnei, Klebsiella pneumoniae, Sulfodecortemum, Supracillinum, Novocainum, Thiobutalum, Phenylum, Synoestrolum, Norsulfazolum, Methicillinum, Oxytetracyclinum, Testosteronum, Densitas, Cortex Periplocae, Convallatoxinum.

7- DARS

Mavzu: Fe'ning shart mayli. «fiat, fiant» fe'lining retseptlarda qo'llanilishi

23- §. Fe'ning shart mayli

Retseptlarda fe'llarning buyruq mayli bilan bir qatorda shart mayli ham keng qo'llanilib, unda buyruq hurmat bilan ifodalanadi.

Retseptlarda shart mayli III shaxs birlik va ko'plik sonlarida qo'llaniladi.

24- §. Quyidagi so‘z va so‘z iboralarini yod oling!

Misceatur – Aralash-tirmoq! Aralash-tirilgan bo‘lsin.

Signetur – Bildirmoq! Bildirilgan bo‘lsin.

Detur – Bermoq! Berilgan bo‘lsin.

Sterilisetur – Sterilizatsiya qilinmoq!
Sterilizatsiya qilingan bo‘lsin.

Dentur tales doses numero. – Shunday dozalardan...

(son)ta bermoq! Shunday dozalardan... (son)ta
berilgan bo‘lsin.

quantum satis – keragicha

25- §. «fiat, fiant» fe‘lining retseptlarda qo‘llanilishi

Qaysi dori shaklini tayyorlash lozimligini retseptlarda ko‘rsatish kerak bo‘lsa, bu holda maqsadli ergash gap birlikda **fiat**, ko‘plikda **fiant** (hosil bo‘lsin, hosil qilinsin) fe‘llari bilan birga qo‘llaniladi.

Masalan: Misce, ut fiat pasta. –

Pasta hosil bo‘lguncha aralash-tir.

Misce, ut fiant suppositoria. –

Shamchalar hosil bo‘l guncha aralash-tir.

Aralash-tirib, shamchalar hosil qilinsin.

Mashqlar

1. Nuqtalar o‘rnini fiat yoki fiant fe‘llari bilan to‘ldiring.

1. Misce, ut ... pilulae.
2. Misce, ut ... unguentum.
3. Misce, ut ... linimentum.
4. Misce, ut ... globuli.
5. Misce ut ... suppositoria.
6. Misce, ut ... mixtura.

7. Recipe massae pilularum quantum satis, ut ... pilulae.

2. Nuqtalar o'rniga mos keladigan qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni yozing.

1. Misce, ut fiat unguent...

2. Recipe massae pilul... quantum satis ut fiant pilul ...

3. Misce, ut fiant bacill...

4. Misce, ut fiant suppositori...

5. Misce, ut fiat suppositori...

6. Misce, ut fiat globul...

7. Misce, ut fiant globul...

8. Misce, ut fiat liniment...

3. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.

2. Aralashtirib, tayoqchalar hosil qilinsin.

3. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.

4. Mikstura hosil bo'lguncha aralashtir.

5. Shunday dozalardan 10 (son)ta ampulalarda berilgan bo'lsin.

6. 10(son)ta sharchalar hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan ol.

7. 30(son)ta hab dorilar hosil qilish uchun keragicha hab dori massasidan ol.

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Olei Persicorum 3,0

Paraffini

Vaselini ana 5,0

Misce, fiat unguentum.

Da.

Signa: Qo'l terisiga surtish uchun.

2. Recipe: Xeroformii 0,5

Butyroli quantum satis

Misce, fiat suppositorium.

Dentur tales doses numero 10.

Signa: Kuniga 2 marta 1 shamchadan qo'yilsin.

3. Recipe: Barbitali
 Amidopyrini ana 1,5
 Massae pilularum quantum satis
 Misce, ut fiant pilulae numero 20.
 Da.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 hab doridan qabul qilinsin.
 4. Recipe: Osarsoli 0,25
 Glucosi 0,3
 Olei Cacao 2,5
 Misce, fiat globulus.
 Da tales doses numero 4.
 Signa: Kechasiga 1 ta sharchadan qo'yilsin.
 5. Recipe: Streptocidi 1,2
 Olei Cacao 12,0
 Misce, fiant suppositoria numero 4.
 Da.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 shamchadan qo'yilsin.
 6. Recipe: Olei Ricini
 Xeroformii 1,2
 Vinylini 1,0
 Misce, fiat linimentum.
 Da.
 Signa: Surtmali bog'lamlar uchun.
- 5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**
1. Ol: Yodoform 2,5
 Vazelin 25,0 gacha
 Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
 Ber.
 Belgila: Surtma
 2. Ol: Ixtiol 0,15
 Steptotsid 0,3
 Kakao moyi 2,5

- Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
Shunday dozalardan 3(son)ta berilgan bo'lsin.
Belgila: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.
3. Ol: Belladonna ekstrakti 0,1
Furatsilin 0,2
Kakao moyi 30,0
Aralashtirib, 10(son)ta sharchalar hosil qilinsin.
Berilsin.
Belgilansin: Kuniga 2 marta 1 sharchadan qo'yilsin.
4. Ol: Kseroform 1,5
Antipirin 3,0
15 (son)ta shamchalar hosil qilish uchun keragicha kakao moyidan
Berilsin.
Belgilansin: Kuniga 3 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.
5. Ol: Streptotsid 0,3
Butiroidan keragicha
Aralashtirib, 3(son)ta shamchalar hosil qilinsin.
Berilsin.
Belgilansin: Kuniga 1ta shamchadan qo'yilsin.
6. Ol: Dermatol 0,2
Streptotsid 0,3
Vazelin 15,0
Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
Berilsin.
Belgilansin: Bog'lamlar uchun.

Uyga vazifa

I. «Fe'ning shart mayli va fiat, fiant fe'llarining retseptlarda qo'llanilishi» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Fe'llarning shart mayli retseptlarda nimani ifodalaydi?
2. Fe'llarning shart mayli retseptlarda qanday shaklda qo'llaniladi?
3. Fiat, fiant fe'llari retseptlarda qachon qo'llaniladi?

II. 24-§ dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Ol: Dermatol 0,2
 Shamcha hosil qilish uchun keragicha
 kakao moyi
 Shunday dozalarda 6 (son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgilansin: Kuniga 2 marta Ita shamchadan
 qo'yilsin.
2. Ol: Promedol 0,02
 Kakao moyi 3,0
 Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
 Shunday dozalardan 6 (son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgilansin: Kechasiga 1 shamchadan qo'yilsin.
3. Ol: Ixtiol 0,15
 Sharcha hosil qilish uchun keragicha jelatin
 massasidan
 Shunday dozalarda 12 (son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgilansin: Qinga qo'yiladigan shamchalar.

IV. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Natura sanat, medicus curat morbos. —
 Vrach davolaydi, tabiat sog'aytiradi.
2. Mendaci homini verum quidem dicenti credere non
 solemus. —
 Yolg'onchining rost gapi ham yolg'on bo'lur.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Triamterenum, Triampur compositum, Triamtesidum,
 Urodanum, Amiloridum, Spironolactonum, Mannitum,
 urea pura, Kalii acetat, Ammonii chloridum, baccae
 Juniperi, folia Orthosiphoni staminei, species diureticae,
 Lespenephriil, Flaroninum, Allopurinolum, Sulfinpyrazone,

Kebuzone, Magurlit, Solimok, extractum Rubiae tinctorum siccum, Cystenal, Olimetinum, Avisanum, Pinabinum, Urolesanum, herba Polygoni avicularis, Phytolysin, Allocholum, Liobilum, Cholenzinum, flores Helichrysi arenarii, Flaminum, styli cum stigmatis Zea Maydis, Tenacecholum, Cholosasum, Berberini bisulfas, Oxaphenamidum, Nicodinum, Cycvalonum, Cholagolum, Febichol, Hymecromone, Legalon, Siliborum, Catergen, Salbupart, Flumecinol, Essentiale, Biligninum, Methylergometrine, Ergotaminum, Oxytocinum, Methyloxytocin, Dinoprost, Prostenonum, Cotarnini chloridum, herba Bursae pastoris, extractum Stachydis betonicaeflorae fluidum, Partusisten, Ritodrinum, Gynipral, Convaflavinum, Flacuminum, Ergotalum.

8- DARS

Mavzu: **I–II turlanishdagi sifatlar.**
Moslashgan aniqlovchi

26-§. I–II turlanishdagi sifatlar

Predmetning belgisini bildirib, **qanday? qanaqa?** savollariga javob bo‘lgan so‘z turkimiga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar ikki guruhga bo‘linadi:

I guruh – I–II turlanishdagi sifatlar

II guruh – III turlanishdagi sifatlar.

I–II turlanishdagi sifatlarga mujskoy rodda **-us** yoki **-er**, jenskiy rodda **-a** va sredniy rodda **-um** qo‘shimchasiga ega bo‘lgan sifatlar kiradi.

Masalan: albus, alba, album- oq

Lugʻatda sifatlar mujskoy rod shaklida yoziladi va soʻzning yonida jenskiy hamda sredniy rodlar qoʻshimchasi koʻrsatiladi.

Masalan: albus, a, um-oq
niger, gra, grum- qora.

-er qoʻshimchasi bilan tugallanadigan baʼzi sifatlar jenskiy va sredniy rodlarni hosil qilishda -e harfini yoʻqotadi, baʼzilari esa saqlab qoladi.

Masalan: niger, nigra, nigrum-qora
somniafer, somnifera, somniferum – uxlatadigan.

27- §. Sifatlarning kelishiklar boʻyicha turlanishi


Mujskoy roddagi sifatlar II turlanish mujskoy roddagi otlar singari, jenskiy roddagi sifatlar I turlanishdagi otlar singari, sredniy roddagi sifatlar II turlanish sredniy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Casus	Singularis			Pluralis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	albus	alba	album	albi	albae	alba
Gen.	albi	albae	albi	alborum	albarum	alborum
Dat.	albo	albae	albo	albis	albis	albis
Acc.	album	albam	album	albos	albas	alba
Abl.	albo	alba	albo	albis	albis	albis

28- §. Moslashgan aniqlovchi

Lotin tilida sifat otdan keyin turadi va u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchili atamani lotin tiliga tarjima qilishda avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Atamani quyidagicha tarjima qilamiz.

1. Otni topib, uning rodini aniqlaymiz:

tinctura, ae, f – jenskiy rod

2. Sifatning lug‘at shaklini aytamiz va otga mos rodini

tanlaymiz: amarus, a, um; amara – jenskiy rod

Atamaning tarjimasini **Nom.** va **Gen.** da yozamiz:

Nom. tinctura amara

Gen. tincturae amarae.

29- §. Quyidagi sifatlarni yod oling!

albus, a, um – oq

flavus, a, um – sariq

luteus, a, um – sariq

coeruleus, a, um – ko‘k, zangori

cinereus, a, um – kulrang

purpureus, a, um – qip-qizil, to‘q qizil

niger gra, grum – qora

amarus, a, um – achchiq

purus, a, um – toza

externus, a, um – tashqi

internus, a, um – ichki

fluidus, a, um – suyuq

liquidus, a, um – suyuq

siccus, a, um – quruq

spissus, a, um – quyuq

frigidus, a, um – sovuq

compositus, a, um – murakkab

gelatinosus, a, um – jelatinli

Mashqlar

1. Quyidagi sifatlarning jenskiy va sredniy rod shakllarini ayting.

- 1) amarus
- 2) grossus
- 3) spissus
- 4) frigidus
- 5) flavus
- 6) purus
- 7) niger
- 8) ruber
- 9) siccus
- 10) compositus
- 11) gelatinosus
- 12) liquidus

2. Sifatni otga moslashtiring va atamalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) cera (albus, a, um)
- 2) emulsum (albus, a, um)
- 3) Amygdala (amarus, a, um)
- 4) tinctura (amarus, a, um)
- 5) bacca (siccus, a, um)
- 6) massa (purus, a, um)
- 7) Glycerinum (purus, a, um)
- 8) extractum (fluidus, a, um)
- 9) bacca (grossus, a, um)
- 10) aqua (frigidus, a, um)
- 11) infusum (compositus, a, um)
- 12) remedium (externus, a, um).

3. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) sariq mum
- 2) toza vazelin
- 3) kulrang surtma

- 4) qora mingdevona
- 5) sariq (luteus, a, um) gazako't
- 6) murakkab damlama
- 7) quyuq ekstrakt
- 8) yirik tabletka
- 9) ichki vosita
- 10) tashqi vosita

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae amarae 10 ml
Tincturae Strychni 5 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatlanishdan oldin
20 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Methyleni coerulei
Da in capsulis gelatinosis.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
3. Recipe: Streptocidi albi 0,5
Da tales doses numero 20.
Signa: Kuniga 4 marta 1 ta poroshokdan
qabul qilinsin.

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Qoqi nastoykasi
Achchiq nastoyka teng miqdorda 10 ml dan
Kuchala nastoykasi 5 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Oq gil 100.0
Ber.
Belgila: Yarim stakan suvga 1–2 osh qoshiq solib,
iste'mol qilinsin.
3. Ol: Sanoning murakkab damlamasi 30,0
Ber.
Belgila: Bir marta iching.

5. Sifat mavzusi bo'yicha klaster tuzing.

Uyga vazifa

I. «I–II turlanishdagi sifatlar va moslashgan aniqlovchi» mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Sifatlar nechta guruhga bo‘linadi?
2. Qaysi sifatlar I–II turlanishga kiradi?
3. Sifatlarning lug‘at shakli qanday yoziladi?
4. I–II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo‘yicha qanday turlanadi?
5. Moslashgan aniqlovchi deganda nimani tushunasiz?

II. 29-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------------|-------------|
| 1) flavus, a, um | a) suyuq |
| 2) internus, a, um | b) yirik |
| 3) fluidus, a, um | c) quruq |
| 4) purus, a, um | d) oq |
| 5) siccus, a, um | e) kulrang |
| 6) niger, gra, grum | f) sariq |
| 7) cinereus, a, um | g) toza |
| 8) albus, a, um | h) murakkab |
| 9) grossus, a, um | i) ichki |
| 10) compositus, a, um | j) qora |

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) oq streptotsid
- 2) oq mum
- 3) sovuq suv
- 4) achchiq bodom
- 5) sariq vazelin

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Nihil est tam populare, quam bonitas. –
Xalq yahshilikni yuksak qadrlaydi.

2. Pulchre sedens melius agens. –
Yetti o‘lchab bir kes.

VI. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Corticotropinum, Genotropin, Octrotide, Calcitonin, Gonadotropinum chorionicum, Gonadotropinum menopausticum, Miacalcic, Danazol, Triiodthyronini hydrochloridum, Mercazolilum, Kalii perchloridum, Glucagon, Calcitrinum, Dihydrotachisterolum, Carbutamide, Chlorpropamidum, Arumet, Glibenclamide, Gliquidone, Metformin, Metiguanide, Acarbose, Cortisonum, Hydrocortisonum, Glipizide, Hydrocortisone acetate, Hydrocortisone hemisuccinate, Prednisolium, Methylprednisolone, Dexamethasonum, Rhinocort, Triamcinolonum, Omcilon, Triamcinoloni acetamidum, Budesonide, Synaflavinum, Flumetasone, Pivalate, Locasalen, Locacorten, Lorinden, Halometasone, Betaderm, Celestoderm, Diprofos, Ultralan, Beclometasoni dipropionas, Becodisc, Rhinosol, Sanasthmyl, In hacort, Fluxolonate, Dohycamon, Fluticasone propionate, Depersolon, Desoxycorticosterone Acetate Vanceril, Desoxycorticosterone trimethylacetate, Oestronum.

9- DARS


Mavzu: **Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida sifatlarning qo‘llanilishi. O‘tgan zamon sifatdoshi**

30- §. Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida sifatlarning qo‘llanilishi

Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida birinchi o‘rinda dori turlari(shakli)ning nomi bosh kelishikda; ikkinchi o‘rinda esa moslashmagan aniqlovchi holidagi shu dori turi tayyorlangan dorivor

o‘simlik yoki dorivor modda nomi qaratqich kelishigida yoziladi, oxirida esa moslashgan aniqlovchi holda kelgan shu dori turini xarakterlovchi sifat turadi.

Masalan:



Shartli tasviri: O₁ → S (Nom.)
 ↓
 O₂ (Gen.)


Tarjima qilamiz:

Nom. infusum Sennae compositum

Gen. infusi Sennae compositi

Ba‘zan dori turlarining murakkab nomlaridagi sifat dori turi nomiga emas, balki dorivor o‘simlik nomiga tegishli bo‘ladi va unga rodde, sonda hamda kelishikda moslashadi.

Masalan:



Shartli tasviri:

O₁ (Nom.)
 ↓
O₂ → S (Gen.)

Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Menthae piperitae

Gen. tincturae Menthae piperitae.

31- §. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

aquosus, a, um – suvli

gelatinosus, a, um – jelatinli

oleosus, a, um – moyli

spirituosus, a, um – spirtli

amylaceus, a, um – kraxmalli

aethereus, a, um – efirli

aethylicus, a, um – etil -i (si)

camphoratus, a, um – kamforali

isotonicus, a, um – izotonik

gastricus, a, um – oshqozon -i (-si)

stomachicus, a, um – oshqozon -i (-si)

anhydricus, a, um – suvsuz.

32- §. Oʻtgan zamon sifatdoshi

Lotin farmatsevtika atamalarida koʻpincha oʻtgan zamon sifatdoshi qoʻllaniladi. Ular feʼllardan tashkil topib, mujskiy rodde -us, jenskiy rodde -a, sredniy rodde -um qoʻshimchasiga ega boʻladi.

Sifatdoshlar I–II turlanishdagi sifatlarga oʻxshash turlanadi va otlarga moslashadi.

33- §. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

destillatus, a, um – distillangan

rectificatus, a, um – tozalangan

depuratus, a, um – tozalangan

purificatus, a, um – tozalangan

praecipitatus, a, um – choʻktirilgan

pulveratus, a, um – kukunga aylantirilgan
dilutus, a, um – suyultirilgan
obductus, a, um – po'st bilan qoplangan
activatus, a, um – faollashtirilgan
vitaminisatus, a, um – vitaminlashtirilgan
tritus, a, um – ishqalab maydalangan
ustus, a, um – olovda kuydirilgan.

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Extractum Frangulae fluidum
2. Tinctura Rhei amara
3. Extractum Valerianae spissum
4. Folium Menthae piperitae
5. Extractum Althaeae siccum
6. Linimentum Chloroformii compositum

2. Qavs ichidagi sifatni otga moslashtirng va o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) capsula (gelatinosus, a, um)
- 2) emulsum (oleosus, a, um)
- 3) tinctura (aethereus, a, um)
- 4) lanolinum (anhydricus, a, um)
- 5) unguentum (camphoratus, a, um)
- 6) paraffinum (albus, a, um)

3. Sifatdoshlarni otlarga moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) camphora (tritus, a, um)
- 2) aqua (destillatus, a, um)
- 3) acidum (dilutus., a, um)
- 4) serum (purificatus, a, um)
- 5) tabuletta (obductus, a, um)

4. Quyidagi atamalarni shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ravochning quruq ekstrakti

- 2) qoqining quruq ekstrakti
- 3) qalampir yalpizning suvi
- 4) valeriananing efirli nastoykasi
- 5) kuchalaning quruq ekstrakti
- 6) arslonquyruqning suyuq ekstrakti

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi Sennae compositi 30 ml
Da.
Signa: Bir marta qabul qilishga
(kattalar uchun)
2. Recipe: Extracti Crataegi fluidi 30 ml
Da.
Signa: Bir qabulga 20 tomchidan ichilsin.
3. Recipe: Tincturae Valerianae aethereae 30 ml
Da.
Signa: Bir qabulga 15 tomchidan ichilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Chayono'tning suyuq ekstrakti
Bo'yadoronning suyuq ekstraktidan teng
miqdorda 25 ml
Mentol 0,05
Aralashtir.
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marʼta 25 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml dan
Do'lananing suyuq ekstrakti 5 ml
Mentol 0,05
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 25 tomchidan ichilsin.
3. Ol: Aloyning suyuq ekstrakti 1 ml
Shunday dozalarda 10(son)ta ampulalarda ber.
Belgila: Teri ostiga 1 ml dan yuborilsin.

Uyga vazifa

I. «Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida sifatlarning qo‘llanilishi va o‘tgan zamon sifatdoshi» mavzularini o‘zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida o‘zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko‘ring:

1. Dorivor preparatlarning ko‘p bo‘lakli nomlarida sifat nechanchi o‘rinda va qanday aniqlovchi holida turadi?
2. Agar sifat dorivor o‘simlik nomiga tegishli bo‘lsa, unga qanday moslashadi?
3. O‘tgan zamon sifatdoshi mujskoy, jenskiy, sredniy rodlarda qanday qo‘shimchalarga ega?
4. O‘tgan zamon sifatdoshi kelishiklar bo‘yicha qanday turlanadi?

II. 31, 33-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) shirinmiyaning quyuq ekstrakti
- 2) ravochning achchiq nastoykasi
- 3) gulxayrining quruq ekstrakti
- 4) qalampir yalpizning bargi

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Ol: Qalampir yalpiz barglarining damlamasi 50,0:200 ml dan
Ber.
Belgila: Har 3 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Ol: Arslonquyruqning suyuq ekstrakti 25 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

V. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Oestradiolum, Oestradiol dipropionate, Lutocyclin, Aethinyloestradiolum, Eticyclin, Progynon, Climakterin, Proginova, Synoestrolum, Dimoestrolum, Diaethylstilboestrolum, Synthoestrin, Syntofollin, Sygethinum, Clomifene Citrate, Progesteronum, Syngestronum, Oxyprogesterone cap-

ronate, Praegninum, Lutocycol, Norethistroni, Ovidon, Norcolut, Allylestrenol, Gestanyn, Acetomepregenolum, Non-Ovlon, Norgestrel, Lindiol, Regevidon, Demulen, Minisiston, Microgynon, Femoden, Marvelon, Anteovin, Trisiston, Tri-Regol, Triquilar, Milvane, Postinor, Microlut, Praegoestrolum, Climonorm, Divina, Testoenatum, solutio «Tetrasteronum» oleosa pro injectionibus, Methyltestosteronum, tabulettae «Testobromlecithum» obductae, Distranorm, Methandrostenolonum, Retabolil, Phenobolinum.

10- DARS

Mavzu: Kimyoviy elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomi

34- §. Kimyoviy elementlarning lotincha nomi

Kimyoviy elementlarning nomi ikkinchi turlanish sredniy rod-dagi otlar bo‘lib, **Nominativus Singularis**da **-um**, **Genetivus Singularis**da **-i** qo‘shimchaga ega. Faqat quyidagilar bu qoidadan mustasno:

Phosphorus, *i, m* – mujskoy rod
Sulfur, sulfuris, *n* – III turlanish.

35- §. Quyidagi kimyoviy elementlarning nomini yod oling!

Belgisi	Lotincha nomi	O‘zbekcha nomi
1	2	3
Al	Aluminium, <i>i, n</i>	aluminium
Ag	Argentum, <i>i, n</i>	kumush
Ba	Barium, <i>i, n</i>	bariy
Bi	Bismulthum, <i>i, n</i>	vismut

1	2	3
Br	Bromum, i, n	brom
Ca	Calcium, i, n	kalsiy
Cl	Chlorum, i, n	xlor
Cu	Cuprum, i, n	mis
Fe	Ferrum, i, n	temir
F	Fluorum, i, n	ftor
H	Hydrogenium, i, n	vodorod
Hg	Hydrargyrum, i, n	simob
I	Iodum, i, n	yod
K	Kalium, i, n	kaliy
Li	Lithium, i, n	litiy
Mg	Magnium, i, n Magnesium, i, n	magniy
Na	Natrium, i, n	natriy
N	Nitrogenium, i, n	azot
O	Oxygenium, i, n	kislorod
Ph	Phosphorus, i, n	fosfor
Pb	Plumbum, i, n	qo'rg'oshin
S	Sulfur, uris, n	oltinugurt
Zn	Zincum, i, n	rux

36- §. Kislotalarning lotincha nomi

Lotin tilida kislotalar nomi ko'pincha **-acidum** (kislota) so'zidan va **-icum** sifat qo'shimchasidan yasaladi.

Masalan: Acidum boricum — borat kislota.

37- §. Kislotalarning nomini yod oling!

Lotincha nomi	O'zbekcha nomi
Acidum (i) acetylsalicylicum (i)	atsetilsalitsilat kislota
Acidum (i) ascorbinicum(i)	askorbinat kislota
Acidum (i) benzoicum(i)	benzoat kislota
Acidum (i) boricum(i)	borat kislota
Acidum (i) carbolicum(i)	karbol kislota
Acidum (i) citricum(i)	limon kislota
Acidum(i) dehydrocholicum(i)	degidroxolat kislota
Acidum (i) etacrynicum(i)	etakrin kislota
Acidum (i) ferro-ascorbinicum(i)	temir askorbinat kislota
Acidum (i) folicum(i)	folat kislota
Acidum (i) glutaminicum(i)	glyutamin kislota
Acidum (i) hydrochloricum(i)	xlorid kislota
Acidum (i) lacticum(i)	sut kislota
Acidum (i) li poicum(i)	li poy kislota
Acidum (i) nicotinicum(i)	nikotin kislota
Acidum (i) salicylicum	salitsilat kislota
Acidum (i) tartaricum(i)	uzum kislota

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Sulfur praecipitatum
2. Acidum concentratum
3. Emplastrum Plumbi compositum
4. Unguentum Zinci
5. Sirupus Aloës cum Ferro
6. Unguentum Acidi borici

2. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) suyultirilgan kislota
- 2) cho'ktirilgan oltingugurt
- 3) qo'rg'oshin suvi
- 4) rux pastasi
- 5) suyultirilgan xlorid kislota

38- §. Oksidlarning lotincha nomi

oxydum, i, n – oksid

peroxydum, i, n – peroksid

hydroxydum, i, n – gidroksid

Hamma oksidlar nomi ikkita otdan tashkil topadi. Lotin tiliga tarjima qilinganda birinchi o'ringa elementning nomi qaratqich kelishigida, «oxydum» esa tegishli old qo'shimchasi bilan bosh kelishikda ikkinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: Zinci oxydum – rux oksidi

Aluminii hydroxydum – aluminiy gidroksidi.

Chala oksidlarning nomi sifat «oxydulatus, a, um»ni element nomi bilan moslab hosil qilinadi.

Masalan: Nitrogenium oxydulatum – azotning chala oksidi.

Mashqlar

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Magnii oxydum
2. Hydrargyri oxydum flavum
3. Magnii peroxydum
4. Linimentum Zinci oxydi
5. Calcii oxydum

4. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qo'rg'oshin oksidi

- 2) rux oksidi
- 3) vodorod peroksidi
- 4) aluminiy gidroksidi

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Sulfuris praecipitati 1,2
Glycerini 5,0
Aquae destillatae 90 ml
Misce. Da.
Signa: Bosh terisiga surtilsin.
2. Recipe: Acidi benzoici 0,6
Acidi salicylici 0,3
Vaselini 10,0
Misce. Da.
Signa: Surtma
3. Recipe: Ferri reducti 1,0
Da tales doses numero 15 in capsulis gelatinosis.
Signa: Kuniga 3 marta 1 kapsuladan ichilsin.
4. Recipe: Hexamethylentetramini 1,0
Zinci oxydi 1,5
Aquae destillatae 120 ml
Misce. Da.
Signa: Oyoq terisiga ishlatilsin.
5. Recipe: Xeroformii 1,0
Zinci oxydi 5,0
Lanolini
Vaselini ana 10,0
Misce. fiat unguentum.
Da.
Signa: Surtma

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Borat kislota 1,0
Talk 50,0
Oq gil
Bug'doy kraxmali teng miqdorda 10,0 dan

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Sepma dori

2. Ol: Suyultirilgan xlorid kislota 15 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1/4 stakan suvga
10–15 tomchidan ichilsin.

3. Ol: Borat kislota 5 ml

Yalpiz suvi 20 ml

Distillangan suv 200 ml gacha

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Chayqash uchun.

4. Ol: Atsetilsalitsilat kislota 0,5

Kofein 0,05

Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

5. Ol: Magniy oksid tabletkalari 0,5 20 (son) ta

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

7. Quyidagi harflar orasidan 15 ta elementning nomini toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.

R A R G E N T U M P H O
B A R I U M A G N I U M
A U R U M O B R O M U M
L I T H I U M N O A K B
U P L U M B U M S Z U M
M A G N E S I U M A O I
I O D U M Y K A L I U M
N I T R O G E N I U M O
I P H O S P H O R U S C
M A G N I U M X Y O N I
S U L F U R Z I N C U M

Uyga vazifa

I. Elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) Kimyoviy elementlar nomi qaysi rodga tegishli?
- 2) Kislotalar nomi qanday yasaladi?
- 3) Oksidlar nomi qanday hosil qilinadi?
- 4) Chala oksidlar nomi qanday hosil qilinadi?

II. 35, 37-§ § dagi elementlar va kislotalar nomini yod oling.

III. Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) simob oksidi
- 2) vodorod peroksidi

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Ol: Dimedrol 0,02

Borat kislotasi 0,2

Distillangan suv 10 ml

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1tomchidan ko'zga tomizilsin.

2. Ol: Kuydirilgan magneziya 20,0

Distillangan suv 120 ml

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Kislotadan zaharlanganda har 10 minutda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Panangin, Asparcamum, Magnerot, Ferri lactas, Ferrosi sulfas, tabulettae «Haemostimulinum», tabulettae «Phytoferrolactolum», tabulettae «Ferrocolum» obductae, Ferroplex, Conferon, Ferro-Gradumet, Tardiferon, Fefolvit, Haemofer, Ferramidum, Ferroceronum, Ferbitolum, Fercovenum, Ferrum Lek, Feracrylum, Oxyferriscorbone natrium, Coami-

dum, Iodum, tabulettae «Microiodum» obductae, solutio Iodi spirituosa, solutio Lugoli, Kalii iodidum, Natrii iodidum, Calcii glycerophosphas, Phytinum, Quinax, Semax, tabulettae «Lipocerebrinum» obductae, Vitaphthorum, Phthorlacum, Natrii arsenas, liquor Kalii arsenitis, Catalin, Methy-luracilum, Pentoxylum, Leucogenum, Biosedum, acidum adenosintriphosphoricum, Phosphadenum, Fosfocreatine, Riboxinum, Oxiamin, Dalarginum, Dipromonium, Carnitini chloridum, Mildronatum, Aceminum, Molgramostim, Fibs pro injectionibus, solutio Polyaethylenoxydi, Filgrastim, Sargramostim, extractum Aloës fluidum pro injectionibus, extractum Aloës fluidum, tabulettae Aloës obductae, Peloidinum.

11- DARS

**Mavzu: Tuzlar nomi. Asos tuzlarning nomi.
Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan
hosil qilgan tuzlarining nomi.
Natriy va kaliy tuzlarning nomi**

39- §. Tuzlar nomi

Kation birinchi o‘rinda keladi va qaratqich kelishikda, birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi, anion kationdan keyin turadi va bosh kelishikda, birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi.

Tuzlar nomini tarjima qilish uchun o‘zbekcha va lotincha suffikslarning mos kelishini eslab qolish kerak.

O‘zbekcha suffiks	Lotincha suffiks	
	Nom.	Gen.
id	idum	idi
it	is	itis
at	as	atis

Masalan:

Na_2S -natriy sulfid – Nom. Natrii sulfidum
Gen. Natrii sulfidi

Na_2SO_3 - natriy sulfit – Nom. Natrii sulfis
Gen. Natrii sulfitis

Na_2SO_4 - natriy sulfat – Nom. Natrii sulfas
Gen. Natrii sulfatis

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Calcii chloras
2. Kalii acetat
3. Natrii arsenis
4. Zinci sulfas
5. Natrii nitris
6. Magnii sulfas
7. Natrii benzoas
8. Ammonii chloridum
9. Calcii carbonas
10. Magnii ascorbas

2. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) kalsiy laktat
- 2) kaliy xlorid
- 3) natriy yodid
- 4) rux sulfat
- 5) natriy ftorid
- 6) qo'rg'oshin atsetat
- 7) kodein fosfat
- 8) natriy nitrit
- 9) bariy sulfat
- 10) litiy oksibutirat

40- §. Asos tuzlarning nomi

Asos tuzlarning nomlari **sub-** old qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Masalan: Asosli vismut gallat-
Nom. Bismuthi subgallas
Gen. Bismuthi subgallatis.

41- §. Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi

Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarning nomi **hydro-** old qo‘shimchasi va **-idum, i** suffiksi yordamida tuziladi.

Masalan: Papaverin gidrokslorid –
Nom. Papaverini hydrochloridum
Gen. Papaverini hydrochloridi.

42- §. Natriy va kaliy tuzlarning nomi

Bu nomlar moddalarning nomlariga «natrium» yoki «kalium» so‘zlarini qo‘shish yordamida hosil bo‘ladi.

Masalan: Barbital-natriy –
Barbitalum-natrium.

Mashqlar

3. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) morfin gidrokslorid
- 2) asosli magniy karbonat
- 3) papaverin gidrokslorid^a
- 4) asosli vismut nitrat
- 5) adrenalin gidrokslorid

6) sulfatsil-natriy

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Natrii bromidi
Coffeini-natrii benzoatis ana 1,0
Amidopyrini 0,5
Sirupi sacchari 5,0
Aquae destillatae ad 100,0
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
2. Recipe: Magnesii oxydi 1,5
Bismuthi subnitratis 0,75
Aquae destillatae 75,0
Misce. Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Ephedrini hydrochloridi 0,25
Strychni nitratis 0,01
Tincturae Belladonnae 10,0
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Tabulettas Oleandomycini phosphatis 0,125
obductas numero 25
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 tabletkadan ichilsin.

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Natriy bromid
Natriy gidrokarbonat teng miqdorda 4,0
Kodein fosfat 0,12
Valeriana nastoykasi 10,0
Distillangan suv 180,0 gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Ol: Temir laktat 1,0
Shunday dozalarda 20 (son)ta jelatinli kapsulalarda
ber.

Belgila: Kuniga 3 marta ovqatdan so'ng 1 kapsuladan ichilsin.

3. Ol: Atropin sulfat 0,0005
Papaverin gidrokslorid
Fenobarbital teng miqdorda 0,02 dan
Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 1ta tabletkadan ichilsin.
4. Ol: Kaliy yodid 0,01
Distillangan suv 10 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2–5 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «Tuzlar nomi. Asos tuzlarning nomi. Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi. Natriy va kaliy tuzlarning nomi» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Tuzlarning lotincha nomi qanday usulda hosil bo'ladi?
2. Asos tuzlarning lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
3. Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining lotincha nomi qanday hosil qilinadi?

II. Tuzlar nomini tarjima qilish uchun zarur bo'lgan o'zbekcha va lotincha suffikslarni yod oling.

III. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) kalsiy xlorat
- 2) kaliy permanganat
- 3) simob dixlorid

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Ol: Amidopirin 1,5
Natriy kofein benzoat 0,5
Marvaridgul nastoykasi 3,0
Distillangan suv 100,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Ol: Magniy sulfat

Adonizid teng miqdorda 6,0 dan

Arslonquyruq nastoykasi 4,0

Distillangan suv 100,0 gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.

3. Ol: Kodein 0,015

Natriy gidrokarbonat 0,25

Shunday dozalardan 6 (son) ta tabletkalarda ber.

Belgila: Kuniga 2–3 marta 1 tabletkadan ichilsin.

V. *To'g'ri o'qishni o'rganing!*

Torfortum, Polybiolinum, Vulnusan, Chonsuridum, Epytalaminum, Encadum, Fogemum, Beroxanum, suspensio Zymosani, Propermyl, Trianol, Befunginum, Propolis, Apilacum, unguentum «Propeceum», aërosolum «Proposolum», Oxygenium, Carbogenum, Dibunolum, Mexidolum, Ubinonum, Olyphenum, Myelopidum, acidum carbonicum anhydricum, Thymalinum, Tactivinum, Thymoptinum, Thymactidum, Vilosenum, Thymogenum, Immunofan, Natrii nucleinas, Pyrogenalum, Poludonum, Rebomunyl, Levamisolum, Prodigiosanum, Azathioprinum, Batridenum, Cyclosporinum, Antilimpholinum, Cysanolum, Carbolongum, Polyphepanum, Tetacinum – calcium, Natrii calcii edetas, Pentacinum, Ferrocinum, Dinatrii aethylendiamintetraacetat, Trimephacinum, Deferoxaminum, Dextrazoxan, Penicillaminum, Cystamini dihydrochloridum, Linimentum Thesani, unguentum Diaethoni, aërosolum «Lioxasolum», Ammi-furinum, Psoraleinum, Psoberanum.

VI. *Quyidagi maqollarni yod oling.*

Qui quaerit-reperit. – Izlagan topadi.

Disce, sed a doctis, indoctos ipse doceto. –

Bilgandan o'rgan, bilmaganga o'rgat.

12- DARS

Mavzu: III turlanishdagi otlar

43- §. III turlanishdagi otlar

III turlanishdagi otlarga **Genetivus Singularisga -is** qo'shimchasiga ega bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi. Uchala roddagi otlarning **Gen. Sing.**da bir xil qo'shimchaga ega bo'lishi III turlanishdagi otlarning o'ziga xos xususiyatidir.

III turlanishdagi otlar teng murakkab va noteng murakkab otlarga bo'linadi.

Teng murakkab otlarda **Gen. Sing.**dagi bo'g'inlar soni **Nom. Sing.** dagi bo'g'inlar soniga teng bo'ladi.

Masalan: apis, apis

Noteng murakkab otlarda esa **Gen. Sing.** dagi bo'g'inlar soni **Nom. Sing.** dagi bo'g'inlar soniga nisbatan bitta ortiqcha bo'ladi.

Masalan: corpus, corporis

III turlanishdagi otlarning negizi Genetivus Singularis shaklidan **-is** qo'shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi	So'zning lug'at shakli
liquor	liquoris	liquor	liquor, liquoris, m
solutio	solutionis	solution	solutio, solutionis, f
corpus	corporis	corpor	corpus, corporis, n

III turlanishdagi otlar uch tipga bo'linadi:

1. Undosh tip (asosiy tip)
2. Aralash tip
3. Unli tip.

44- §. Undosh tip

Undosh tipga **Genetivus Singularis** da **-is** qo'shimchasiga, **Nominativus Singularis** da esa har xil qo'shimchaga ega bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi.

Masalan: liquor, liquoris, m;
 solutio, solutionis, f
 corpus, corporis, n.

Undosh tipdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Mujskoy va jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda bir xil qo'shimchalarga ega bo'ladi.

Casus	Singularis			Pularis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	har xil			es	es	a
Gen.	is	is	is	um	um	um
Dat.	i	i	i	ibus	ibus	ibus
Acc.	em	em	=Nom	es	es	a
Abl.	e	e	e	ibus	ibus	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Singularis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	cortex	solutio	semen
Gen.	corticis	solutionis	seminis
Dat.	cortici	solutioni	semini
Acc.	corticem	solutionem	semen
Abl.	cortice	solutione	semine

Casus	Pularis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	cortices	solutiones	semina
Gen.	corticum	solutionum	seminum
Dat.	corticibus	solutionibus	seminibus
Acc.	cortices	solutiones	semina
Abl.	corticibus	solutionibus	seminibus

45-§. Quyidagi soʻz va soʻz iboralarni yod oling!

Mujskoy roddagi otlar

flos, floris, m – gul
aether, aetheris, m – efir
carbo, carbonis, m – koʻmir
liquor, liquoris, m – suyuqlik
cortex, corticis, m – poʻstloq
pulvis, pulveris, m – kukun
Adonis, Adonidis, m – adonis

Jenskiy roddagi otlar

injectio, injectionis, f – inʼyeksiya, ukol qilish
pro injectionibus – inʼyeksiyalar uchun
solutio, solutionis, f – eritma
suspensio, suspensionis, f – shilliq
radix, radiceis, f – ildiz, tomir
pix liquida, picis liquidae – qoramoy
Plantago, Plantaginis, f – zupturum
Thermopsis, Thermopsidis, f – termopsis, afsonak

Mays, Maydis, f – makkajo‘xori
Berberis, Berberidis, f – zirk

Sredniy roddagi otlar

semen, seminis, n – urug‘
stigma, stigmatis, n – tumshuqcha, og‘izcha
rhizoma, rhizomatis, n – ildizpoya
rhizoma cum radicibus,
rhizomatis cum radicibus – ildizpoya ildizlar bilan
elixir, elixiris, n – eliksir
Polygonum hydropiper,
Polygoni hydropiperis – achchiq toron, suvqalampir
Papaver, Papaveris, n – ko‘knori

Mashqlar

1. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini yozing.

Suyuqlik, eritma, urug‘, tumshuqcha, nastoyka, barg, sharcha.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
flos – gul	III	m	floris – gulning	flores – gullar	florum – gullarning

2. Quyidagi otlarning lug‘at shaklini yozing va negizini aniqlang.

Pulmo, homo, pulvis, Adonis, sirupus, oleum, gemma.

3. Qavs ichida berilgan sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1) carbo (activatus, a, um)

- 2) aether (purus, a, um)
- 3) solutio (oleosus, a, um)
- 4) pulvis (compositus, a, um)

4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Cortex Viburni
2. Flores Arnicae
3. Pulvis Glycyrrhizae
4. Decoctum florum Tiliae
5. Pulvis Glycyrrhizae compositus

5. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) moychechak gullari
- 2) moychechak gullarining damlamasi
- 3) murakkab kukun
- 4) frangula po'stlog'i
- 5) qoqi ildizi
- 6) termopsis o'ti
- 7) zupturum shirasi
- 8) gulxayri ildizining damlamasi
- 9) bodom urug'lari
- 10) valeriana ildizpoyasi ildizlari bilan

6. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Magnesii oxydi 0,5
Bismuthi subnitratis 0,2
Extracti Belladonnae 0,01
Miscel, fiat pulvis.
Da tales doses numero 10.
Signa: Kuniga 2–3 marta 1 ta poroshokdan qabul qilinsin.
2. Recipe: Solutionis Corasoli 10% 1ml
Da tales doses numero 10 in ampullis.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ml dan teri ostiga ukol qilish uchun.
3. Recipe: Pulveris radiceis Rhei

Magnesii oxydi ana 0,3
Extracti Belladonnae 0,015
Misce, fiat pulvis.
Da tales doses numero 10.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta poroshokdan
qabul qilinsin.

4. Recipe: Infusi radicis Althaeae 3,0:100 ml
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan
ichilsin.

7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Kalina po'stlog'ining qaynatmasi 10,0:200ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Ol: Rux oksid 5,0
Talk 15,0
Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Sepma dori
3. Ol: Zupturum barglarining damlamasi 10,0: 200 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

Uyga vazifa

I. «III turlanishdagi otlar va undosh tipdagi otlar» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) III turlanishdagi otlar qanday tiplarga bo'linadi?
- 2) II turlanishdagi otlar Gen. Sing da qanday qo'shimchaga ega?
- 3) Teng murakkab otlar deb qanday otlarga aytiladi?

4) Noteng murakkab otlarning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

5) Otlarning negizi qanday aniqlanadi?

6) Undosh tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?

II. 45-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini yozing: efir, po'stloq, ildiz, eliksir.

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

1) afsonakning quruq ekstrakti

2) zupturum urug'i

3) achchiq toronning yer ustki qismi.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Teturamum, tabulettae Radoteri, Cyamidum, decoctum Lycopodii selaginosi, Litonitum, Phepranonum, Dexfenfluramine, Benzylpenicillinum – natrium, Benzylpenicillinum – kalium, Benzylpenicillinum – novocainum, Bicillinum, Phenoxymethylpenicillin, Phenoxymethylpenicillin Benzatine, Oxacillinum – natrium, Ampicillinum – natrium, Unasyn, Cefaclor, Carbenicillinum, – dinatricum, Carfecillin, Azlocillin, Amoxicillin, Amoxyclav, Piperacillin, Tazocin, Cephazolin, Cephalotin Sodium, Cefalexinum, Cefuroxim, Cefotaxim, Ceftriaxon, Sulperazonum, Cefpirom, Imipenem, Tienam, Aztreonam, Penamecillin, Neomycin Sulfate, Monomycinum, Kanamycinum, Canoxicelum, Gentamycini sulfas, Tobramycinum, Sisomycin Sulfate, Amicin Sulfate, Tetracyclinum, unguentum Tetracyclini ophthalmicum, tabulettae Tetracyclini et Nystatini obductae, Tetracyclini hydrochloridum, Oxytetracyclini dihydras, Oxytetracyclini hydrochloridum, unguentum «Hyoxysonum», aërosolum «Oxycyclosolum», aërosolum «Oxycortum», Metacyclini hydrochloridum.

13- DARS

**Mavzu: III turlanishdagi otlar.
Aralash va unli tip**

46- §. Aralash tip

Aralash tipga hamma uch roddagi (asosan jenskiy roddagi) otlar kiradi.

Ularni 2 guruhga bo'lish mumkin:

1. Negizi ikkita unsiz tovush bilan tamomlanadigan otlar.

Masalan: pars, partis, f

2. **-es** va **-is** bilan tamomlanadigan teng murakkab otlar.

Masalan: apis, apis, f

Aralash tipdagi otlar kelishiklar bo'yicha undosh tipdagi otlarga o'xshab turlanadi, lekin o'ziga xos bir xususiyatga ega: **Genetivus Pluralis** da **-um** qo'shimchasi o'rniga **-ium** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	pars	partes
Gen.	partis	partium
Dat.	parti	partibus
Acc.	partem	partes
Abl.	parte	partibus

47- §. Unli tip

Unli tipdagi otlarga **Nominativus Singularis** da **-ar, -al, -e** qo‘shimchalarga ega bo‘lgan sredniy roddagi otlar kiradi.

Unli tipdagi otlarning kelishiklar bo‘yicha turlanishi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	har xil	ia
Gen.	is	ium
Dat.	i	ibus
Acc.	=Nom	ia
Abl.	i	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	animal	animalia
Gen.	animalis	animalium
Dat.	animali	animalibus
Acc.	animal	animalia
Abl.	animali	animalibus

48- §. Quyidagi so‘z va so‘z iboralarni yod oling!

Aralash tipdagi otlar

pars, partis, f – qism, bo‘lak

Digitalis, Digitalis, f – angishvonagul

Vitis idaea, Vitis idaeae – brusnika
 Bidens, Bidentis, f – ittikanak
 Bursa pastoris,
 Bursae pastoris – jag‘-jag‘
 Oleum jecoris Aselli,
 Olei jecoris Aselli – baliq yog‘i

Unli tipdagi otlar

sal, salis, n – tuz
 Nuphar, Nupharis, n – nufar
 Secale cornutum,
 Secalis cornuti – shoxkuya
 Solutio Ammonii caustici
 Solutionis Ammonii caustici – novshadil spirti
 Liquor Ammonii anisatus,
 Liquoris Ammonii anisati – novshadil-arpabodiyon tomchilari

Yunoncha teng murakkab otlar

tussis, is, f – yo‘tal
 contra tussim – yo‘talga qarshi
 dosis, is, f – doza
 pro dosi – dorilarni bir marta qabul qilish dozasi
 Sinapis, Sinapis, f – xantal, gorchitsa

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Qism, tuz, angishvonagul, qaynatma, suv, eritma.

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
carbo – ko‘mir	III	m	carbonis – ko‘mirning	carbones – ko‘mirlar	carbonum – ko‘mirlarning

2. Qavs ichida berilgan soʻzlardan foydalanib, dorivor preparatlar nomini tuzing.

- 1) pulvis (Liquiritia)
- 2) extractum (stigma, Mays)
- 3) infusum (radix, Valeriana)
- 4) infusum (folium, Mentha)
- 5) extractum (Crataegus, fluidus,a,um)
- 6) decoctum (rhizoma, Tormentilla)

3. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

- 1) mixtura sicca contra tussim
- 2) radix Althaeae
- 3) liquor Kalii acetatis
- 4) Chloroformium pro narcosi
- 5) semina Sinapis
- 6) tabulettae contra tussim

4. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) sariq nufar
- 2) toʻq qizil angishvonagul
- 3) angishvonagul barglarining kukuni
- 4) jagʻ-jagʻning suyuq ekstrakti
- 5) afsonak yer ustki qismining damlamasi
- 6) ittikanak yer ustki qismining suyuq ekstrakti
- 7) shoxkuyaning quyug ekstrakti

5. Retseptlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi herbae Bursae pastoris 10.0:200 ml

Da.

Signa: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Recipe: Infusi radiceis Valerianae ex 12.0:100 ml

Infusi foliorum Menthae ex 4,0:100 ml

Natrii bromidi 5,0

Codeini phosphatis 0,2

Barbitali-natrii 2,0

Extracti Crataegi fluidi 10 ml

Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Recipe: Solutionis Camphorae oleosae 20% 2 ml
Da tales doses numero 6 in ampullis.

Signa: Teri ostiga 2 ml dan yuborilsin.

4. Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 0,1:100 ml
Liquoris Ammonii anisati 1 ml

Natrii benzoatis 0.6

Sirupi Althaeae 20 ml

Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Etakridinning spirtli eritmasi 0,1%200 ml

Ber.

Belgila: Terining shikastlangan joyiga
surtish uchun.

2. Ol: Moychechak gullarining damlamasi

2,0:100 ml dan

Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan
(1 yoshgacha bolaga) ichirilsin.

3. Ol: Glukoza eritmasi 20% 200 ml

Sulfadimezin 4,0

Novshadil-arpabodiyon tomchilari 2 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4.Ol: Natriy benzoat 0,6

Novshadil-arpabodiyon tomchilari 1 ml

Gulxayri sharbati 25 ml

Distillangan suv 60 ml gacha

Aralashtir. Ber.

Belgila: Har 2--3 soatda 1 choy qoshiqdan ichilsin.

7. «III turlanishdagi otlar» mavzusiga klaster tuzing.

Uyga vazifa

I. «*Aralash va unli tipdagi otlar*» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) Aralash tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
- 2) Unli tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
- 3) Aralash tipdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
- 4) Unli tipdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.

II. 48-§ *dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.*

III. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini yozing: nufar, ittikanak, tumshuqcha, gulxayri.*

IV. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) ilonsimon toron ildizpoyasi
- 2) toza efir
- 3) moychechak gullari
- 4) ittikanak yer ustki qismining briketi

V. *To'g'ri o'qishni o'rganing!*

Norflaxacin, Ofloxacin, Lifusolum, Ciprofloxacina, Lomefloxacina, Oxolinum, Chinoxidinum, Dioxidinum, aerosolum «Dioxyplast», Furacilinum, Betaferon, Furaplastum cum Perchlorvinylo, unguentum «Fastinum», unguentum «Fulevil», Clefurinum, Algiporum, Lamivudin, Furazolidonum, Furazolinum, Furadoninum, Furaginum, unguentum Chinifurili, Isoniazidum, solutio «Isonides», Phthivazidum, Saluzidum solubile, Methazidum, Protionamide, Ethambutol, Thioacetazonum, Soluthizonum, Natrii para-aminosalicylas, solutio Natrii para-aminosalicylatis pro injectionibus, Intron, Bepascum, Calcium para-benzamidosalicylicum, Streptomycini sulfas, Streptosaluzidum, Streptomycini et Calcii chloridum, Pasomicinum, Rifampicinum, Cyclaserinum, Florimycini sulfas, Rifabutin, Florenalum, Diaphenylsulfonum, Solusulfonum, Reaferonum.

Interferonum leucocyticum humanum siccum, Poludonum, Remantadinum, Adaprominum, Deitiforinum, Arbidolum, Bonaphtonum, Tebrophenum, Riodoxolum, Methisazonum, Idoxuridine, Amphoglucaminum.

VI. *Quyidagi maqollarni yod oling!*

1. Amicus certus in re incerta cernitur. —
Sodiq do'st og'ir kunda bilinar.
2. Ex ore parvulorum veritas. —
Yosh bola haqiqatni aytadi.

14- DARS

Mavzu: III turlanishdagi sifatlar

49- §. III turlanishdagi sifatlar

III turlanishdagi sifatlar 3 guruhga bo'linadi:

1. Uch qo'shimchali sifatlar.

Bunda har bir rod o'z qo'shimchasiga ega:
m-**er**-silvester, f-**is**-silvestris, n-**e**-silvestre
Lug'at shakli quyidagicha:
silvester, tris, tre — o'rmondagi.

2. Ikki qo'shimchali sifatlar.

Bunda mujskoy va jenskiy rodlar **-is** qo'shimchasiga, sredniy rod **-e** qo'shimchasiga ega bo'ladi.
m, f- officinalis, **n-**officinale
Lug'at shakli quyidagicha:
officinalis, e-dorivor.

3. Bir qo'shimchali sifatlar.

Bunda uchala rod bir qo'shimchaga, ya'ni **-x** yoki **-ns** qo'shimchalariga ega. Lug'atda birinchi **Nom. Sing.**

shakli to'liq yoziladi, keyin **Gen.Sing.**ning kelishik qo'shimchasi ko'rsatiladi.

simplex, icis-oddiy

recens, ntis-yangi.

III turlanishdagi sifatlarning kelishiklar bo'yicha turlanishi

Casus	Singularis			Pluralis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	er	is	e	es	es	ia
Gen.	is	is	is	ium	ium	ium
Dat.	i	i	i	ibus	ibus	ibus
Acc.	em	em	e	es	es	ia
Abl.	i	i	i	ibus	ibus	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Singularis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	silvester	silvestris	silvestre
Gen.	silvestris	silvestris	silvestis
Dat.	silvestri	silvestri	silvestri
Acc.	silvestrem	silvestrem	silvestre
Abl.	silvestri	silvestri	silvestri

Casus	Pluralis		
	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>
Nom.	silvestres	silvestres	silvestria
Gen.	silvestrium	silvestrium	silvestrium
Dat.	silvestribus	silvestribus	silvestribus
Acc.	silvestres	silvestres	silvestria
Abl.	silvestribus	silvestribus	silvestribus

50- §. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

simplex, icis – oddiy
officinalis, e – dorivor
majalis, e – may -i(-si)
pectoralis, e – koʻkrak -i(-si)
vernalis, e – bahorgi
naturalis, e – tabiiy
fortis, e – kuchli taʼsir qiladigan (dori)
mitis, e – kuchsiz taʼsir qiladigan (dori)
subtilis, e – mayda
solubilis, e – eruvchan
sterilis, e – sterilizatsiya qilingan
dulcis, e – shirin
Viride nitens,
Viridis nitentis – brilliant koʻki

Mashqlar

1. Sifatni otga moslashtiring va oʻzbek tiliga tarjima qiling.

- 1) sirupus (simplex, icis)
- 2) Taraxacum (officinalis, e)
- 3) herba Adonidis (vernalis, e)
- 4) emplastrum Plumbi (simplex, icis)
- 5) Griseofulvinum (fortis, e)
- 6) pulvis (subtilis, e)

2. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) bahorgi adonis
- 2) may marvaridguli
- 3) koʻkrak eliksiri
- 4) tabiiy shira
- 5) dorivor valeriana
- 6) shirin bodom
- 7) dorivor qoqi

8) eruvchan furagin

3. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Emulsi oleosi 120,0
Phenolphthaleini 0,8
Sirupi simplicis 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan
ichilsin.
2. Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 150 ml.
Natrii hydrocarbonatis 3,0
Liquoris Ammonii anisati 2 ml
Elixiris pectoralis 2 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
3. Recipe: Emulsi olei Ricini 180,0
Sirupi simplicis 20 ml
Misce. Da.
Signa: Har soatda 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
4. Recipe: Emplastri Plumbi simplicis 50,0
Da.
Signa: Terining shikastlangan joyiga
surtilsin.

4. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Gulxayri ildizining damlamasi 120 ml
Natriy gidrokarbonat 0,6
Ko'krak eliksiri 2 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan
ichilsin.
2. Ol: Gulxayri ildizining qaynatmasi 150 ml
Natriy benzoat 3,0
Ko'krak eliksiri 2 ml.

Oddiy sharbat 20 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan
ichilsin.

3. Ol: Bahorgi adonis yer ustki qismining damlamasi
6,0: 180 ml dan

Arslonquyruq nastoykasi

Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml dan

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

5. Xato tarjima qilingan atamalarni toping va xatolar nimalardan iborat ekanligini tushuntiring.

Folia silvestres, semina dulcia, Amygdalus dulcis, Triticum vulgare, medicamentum forte, semen amare, Thymus vulgare, Pinus silvestris, capsula medicinalis, herba vernalis, succus naturale, linimentum volatile.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Adonis vernalis glycosida Cimorinum et Adonitoxinum continet.
2. Folia sicca et siccus ex herba Plantaginis recentis in medicina adhibentur.
3. Globuli sunt suppositoria vaginalia.
4. Adonidum est praeparatum Adonis vernalis.
5. Sunt duo praeparata: Aether medicinalis et Aether pro narcosi.

7. «III turlanishdagi sifatlar» mavzusi bo'yicha klaster tuzing.

Uyga vazifa

I. «III turlanishdagi sifatlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

- 1) III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?

- 2) Uch qo‘shimchali sifatlar rodlar bo‘yicha qanday qo‘shimchalarga ega?
- 3) Ikki qo‘shimchali sifatning rodlar bo‘yicha qo‘shimchalarini ayting.
- 4) Bir qo‘shimchali sifatlar rodlar bo‘yicha qanday qo‘shimchalarga ega?
- 5) III turlanishdagi sifatlar Nom. Sing. va Gen. Sing. da qanday qo‘shimchalarga ega?
- 6) III turlanishdagi sifatning Nom.Plur. va Gen.Plur. qo‘shimchalarini ayting.

II. 50-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) oddiy malham
- 2) ko‘krak miksturasi
- 3) shirin urug‘lar
- 4) bahorgi o‘t

IV. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Iodonatum, Iodopironum, Iodovidonum, Calcex, Persadox, Piosidum, solutio Hydrogenii peroxydi concentrata, Hydroperitum, Kalii permanganas, Acidum salicylicum, Galmanium, liquor ad clavos, emplastrum adhaesivum ad clavos «Salipodum», acidum benzoicum, unguentum Acidi salicylici, pasta Zinci salicylata, Persalanum, Benzoylperoxidum, solutio Acidi borici spirituosa, linimentum Bora-zincatum, pasta Teimurovi, Natrii tetraboras, Acidum azelaicum, Cupri sulfas, suppositoria «Neo-Anusolum», Zincascolum, tabulettae «Traceptinum», Hexamethylen-tetraminum, solutio Formaldehydi, Zinci sulfas, Lysoformium, Urotropinum, Gystamine, Ciminalum, Cimesolum, spiritus aethylicus, Argenti nitras, Protargolum, Collargolum, Zinci oxydum, unguentum Zinci, unguentum Zincinaphthalanum cum Anaesthesino, pasta Zinci – ichthyoli, suspensio «Novocindolum», Aspersio puerilis, emplastrum

Plumbi simplex, Tricresolum, Pherosolum, pasta Boro-zinci-naphthalani.

V. Quyidagi maqolni yod oling.

Si vera narretis, non opus sit testibus. —

Agar haqiqatni gapirsangiz, guvohga hojat yo‘q.

15- DARS

Mavzu: **Farmatsevtik atama va retseptlarni tarjima qilish**

Farmatsevtik atama va retseptlarni tarjima qilish

1. «III turlanishdagi otlar va III turlanishdagi sifatlar» mavzularini takrorlab, quyidagi savollarga javob bering.

1. III turlanishdagi otlar nechta tipga bo‘linadi?
2. Undosh tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
3. III turlanishdagi otlar Gen. Sing. da qanday qo‘shimchaga ega?
4. Teng murakkab va noteng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
5. Aralash tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
6. Unli tipdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
7. Unli tipdagi otlarning kelishik qo‘shimchalarini ayting.
8. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo‘linadi?
9. 3 qo‘shimchali, 2 qo‘shimchali va 1 qo‘shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
10. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo‘yicha qanday turlanadi?

2. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Qaynatma, suv, ildiz, sharcha, urug‘, tabletka, granula, ildizpoya, eritma, qism.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
gemma	I	f	gemmae	gemmae	gemmarum

3. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

1. achchiq nastoyka
2. moyli eritma
3. distillangan suv
4. faollashtirilgan ko‘mir
5. kuchli ta‘sir qiladigan sustak
6. kuchsiz ta‘sir qiladigan dori
7. may marvaridguli
8. do‘lananing suyuq ekstrakti
9. gulxayri ildizining damlamasi
10. rux surtmasi
11. mayda kukun
12. dorivor valeriana
13. zirk ildizi
14. kungaboqar moyining emulsiyasi
15. ravoch ildizining damlamasi

4. Retsept iboralarini tarjima qiling.

1. Ol: Kodein fosfatdan
2. Ol: Natriy bromiddan
3. Ol: Marvaridgul nastoykasidan
4. Ol: Distillangan suvdan
5. Ol: Karbol kislotasidan
6. Ol: Simob dixloriddan
7. Ol: Lanolindan
8. Ol: Vazelindan

9. Ol: Natriy benzoatdan
 10. Ol: Ko'krak eliksiridan
 11. Ol: Ixtioldan
 12. Ol: Kakao moyidan
 13. Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
 14. Kukun hosil bo'lguncha aralashtir.
- 5. Retseptlarni tarjima qiling.**
1. Ol: Novakain eritmasi 2%—30 ml
Sterilizatsiya qilinsin!
Berilsin.
Belgilansin: 2 kunda 1marta 5ml dan mushaklar orasiga yuborilsin.
 2. Ol: Kodein fosfat 0,6
Natriy bromid 4,0
Habdori massasidan keragicha, 40 (son)
habdorilar hosil bo'lguncha
Berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Kuniga 3 marta 1 har doridan qabul qilinsin.
 3. Ol: Shirin bodom urug'i 5,0
Kanakunjut moyidan 3,0
Emulsiya hosil bo'lguncha aralashtir.
Berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
 4. Ol: Benkain 0,5
Natriy xloridning izotonik eritmasi 200,0
Aralashtirilgan bo'lsin. Sterilizatsiya qilingan bo'lsin!
Berilgan bo'lsin.
Belgilangan bo'lsin: infultratsion og'riqsizlantirish uchun.
 5. Ol: Kamfora 1,0
Shaftoli moyi 5 tomchi

- Suvsiz lanolin 1,0
Ber:
Belgila: Yuz uchun surtma
6. Ol: Angishvonagul barglarining kukuni 0,1
Kakao moyi keragicha
Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber:
Belgila: Kechasi 1 ta shachadan qo'yilsin.
7. Ol: Moyli emulsiya 120,0
Fenolftalein 0,8
Oddiy sharbat 20,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan
ichilsin.
8. Ol: Eruvchi streptotsid 5,0
Glyukoza eritmasi 1% 100 ml
Aralashtir. Sterilizatsiya qil!
Ber.
Belgila.

Uyga vazifa

Oraliq baholashga tayyorlaning!

16- DARS

Mavzu: **IV turlanishdagi otlar**

51- §. IV turlanishdagi otlar

IV turlanishga Genetivus Singularis da **-us** qo'shimchasiga ega bo'lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Ular **Nominativus Singularis** da mujskoy rodga kirsa **-us**, sredniy rodga kirsa **-u** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Masalan: fructus, us, m
cornu, us, n

IV-turlanishdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari

Casus	Singularis		Pluralis	
	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>
Nom.	us	u	us	ua
Gen.	us	us	uum	uum
Dat.	ui	u	ibus	ibus
Acc.	um	u	us	ua
Abl.	u	u	ibus	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	fructus	fructus
Gen.	fructus	fructuum
Dat.	fructui	fructibus
Acc.	fructum	fructus
Abl.	fructu	fructibus

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	cornu	cornua
Gen.	cornus	cornuum
Dat.	cornu	cornibus
Acc.	cornu	cornua
Abl.	cornu	cornibus

52- §. Quyidagi otlarni yod oling!

spiritus, us, m – spirt
usus, us, m – ishlatish, qo'llash
fructus, us, m – meva
exitus, us, m – natija, oqibat
status, us, m – holat, ahvol
habitus, us, m – tashqi ko'rinish
gelu, us, n – muz, yax
cornu, us, n – muguz(shox)
manus, us, f – qo'l (istisno tariqasida jen. rodga kiradi)
Quercus, us, f – dub, eman
(istisno tariqasida jen. rodga kiradi).

Quyidagi so'z iboralarni eslab qoling!

ad usum internum	}	– ichish uchun, ichga ishlatish uchun
pro usu interno		
ad usum externum	}	– sirtga ishlatish uchun, sirtidan ishlatishga
pro usu externo		

53- §. «Quercus» so'zining turlanishi

«Quercus» so'zi kelishiklar bo'yicha turlanganda o'ziga xos ikkita xususiyatga ega:

Dat. Plur. va **Abl. Plur.** – ibus o'rniga **ubus** qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Spirt, meva, muz, kraxmal, tirmoqgul, barg, rang.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
fructus – meva	IV	m	fructus – mevaning	fructus – mevalar	fructuum – mevalarning

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.

- 1) fructus (grossus, a,um)
- 2) fructus (amarus, a,um)
- 3) usus (externus, a,um)
- 4) usus (internus, a, um)
- 5) spiritus (aethylicus, a, um)
- 6) exitus (letalis, e)
- 7) fructus (concisus, a, um)
- 8) spiritus (saponatus, a, um).

3. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

- 1) fructus Rosae
- 2) spiritus camphoratus
- 3) fructus Capsici concisus
- 4) spiritus saponatus compositus
- 5) fructus seu baccae Juniperi
- 6) fructus et semina Schizandrae chinensis
- 7) sirupus fructuum Rosae vitaminisatus
- 8) solutio Camphorae oleosa ad usum externum.

3. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) eman poʻstlogʻi
- 2) doʻlana mevalari
- 3) kamforali spirt
- 4) eman poʻstlogʻining damlamasi
- 5) archa qubbarining damlamasi
- 6) fenxel mevasi va moyi
- 7) sirdan qoʻllash uchun

8) chakonda mevasi va moyi

4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. In fructibus Rosae maxima quantitas vitamini C autumnno continetur.
2. Doctrina est fructus dulcis radicis amarae.
3. Fructus Rubi idaei ut remedium diaphoreticum adhibentur.
4. Ex fructibus Foeniculi vulgaris oleum aethereum conficitur.
5. Spiritus aethylicus aliter spiritus Vini nominatur.
6. Fructus Alni, Capsici, Crataegi, Juniperi, Rhamni catharticae, Schizandrae in medicina adhibentur.
7. Medicamenta sunt ad usum externum et ad usum internum.

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Spiritus aethylici 95% 20 ml
Aquae pro injectionibus 100 ml
Misce. Da.
Signa: 10 ml. dan ko'k tomirga yuborilsin.
2. Recipe: Infusi fructuum Anisi 15,0 : 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin
1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Sulfuris depurati 2,0
Glycerini
Spiritus camphorati ana 5,0
Misce. Da.
Signa: Yuz terisiga surtish uchun.
4. Recipe: Sulfuris depurati 2,0
Glycerini
Spiritus camphorati ana 5,0
Aquae destillatae 60 ml
Misce. Da.
Signa: Yuz terisiga surtish uchun.

5. Recipe: Solutionis Iodi pro usu interno 15 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin
1–5 tomchidan sut bilan ichilsin.
6. *Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.*
1. Ol: Furatsilin tabletkalari 0,02:10 ta
sirtidan qo'llash uchun
Ber.
Belgila: 1 ta tabletkani 100 ml suvda eritib,
tomoq chayqalsin.
 2. Ol: Eman po'stlog'ining qaynatmasi 20,0:200 ml
Ber.
Belgila: Og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun.
 3. Ol: Borat kislota 3.0
Glitserin 10.0
Etil spirti 70% 100 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Emizikli onalarning ko'kragiga surtish
uchun.
 4. Ol: Eman po'stlog'ining qaynatmasi 20.0:200 ml
Achchiqtosh 20 ml
Glitserin 15 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Og'iz bo'shlig'ini chayqash uchun.
 5. Ol: 10%li kamfora spirti 40 ml
Ber.
Belgila: Uqalab surtish uchun.

Uyga vazifa

I. *«IV turlanishdagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.*

1. Qaysi otlar IV turlanishga kiradi?

2. IV turlanishdagi otlar Nom.Sing. va Gen. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega?

3. IV turlanishdagi otlarning Nom. Plur. va Gen. Plur. qo'shimchalarini ayting.

II. 52-§ dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|--------------|------------------------|
| 1) manus | a) ahvol, holat |
| 2) gelu | b) natija, oqibat |
| 3) habitus | c) qo'l |
| 4) cornu | d) spirt |
| 5) Quercus | e) ishlatish, qo'llash |
| 6) status | f) muz, yax |
| 7) exitus | g) meva |
| 8) fructus | h) muguz |
| 9) usus | i) dub, eman |
| 10) spiritus | j) tashqi ko'rinish |

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) arpabodiyon mevalari
- 2) arpabodiyon mevalarining damlamasi
- 3) eman po'stlog'ining qaynatmasi
- 4) kamforaning moyli eritmasi

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Vita sine litteris – mors est. –

Ilmsiz hayot – o'lim.

2. Qualis rex, talis grex. –

Chupon qanday bo'lsa, podasi ham shunday.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Ectericidum, Tomicidum, tinctura Sophorae japonicae, species «Elecasolum», Allilcepum, Nittifor, Pedilin, Itax, Benzylii benzoas medicinalis, Crotamiton, Embichinum, Sarcolysinum, Racemelphalanum, Procytox, Melphalan, Dipinum, Chlorbutinum, Linfolysin, Cyclophosphanum,

Ledoxina, Prospidinum, Dopanum, Lophenalum, Paphencylum, Bendamustin, Cytostasan, Spirobrominum, Thiophosphamidum, Tespamin, Benzotephum, Phthorbenzotephum, Imiphosum, Hexaphosphamidum, Photrinum, Myelosanum, Mylecylan, Leukosulfan, Mysulban, Lomustin, Carmustine, Dacarbazine, Methotrexate, Exal, Methylaminopterinum, Mercaptopurinum, Thioguaninum, Phthoruracilum, Fluoroplex, Citomid, Queroplex, Phthorafurum, Cytarabinum, Fludarabin, Cisplatine, Platinum, Hidrix, Carboplatin, Blastocarb, Procarbazin, Hydroxycarbamide, Biosupressin, Colchaminum, Rosevinum, Nitoxantrone, Irenotecan, Vinblastine, Oncocristin, Colchicinum, Colchiquium, Podophyllinum.

17- DARS

Mavzu: **V turlanishdagi otlar**

53- §. V turlanishdagi otlar

V turlanishga **Genetivus Singularis** da **-ei**, **Nominativus Singularis** da **-es** qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

Masalan: res, rei, f.

V turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	es	es
Gen.	ei	erum
Dat.	ei	ebus
Acc.	em	es
Abl.	e	ebus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	species	species
Gen.	speciei	specierum
Dat.	speciei	speciebus
Acc.	speciem	species
Abl.	specie	speciebus

54- §. Quyidagi otlarni yod oling!

species, ei, f – yig‘ma
dies, ei, f – kun, kunduzi
amarities, ei, f – achchiq ta‘m, taxir maza
res, ei, f – narsa, buyum

Quyidagi iboralarni eslab qoling!
pro die – dorining bir sutkalik dozasi
pro dosi – dorining bir marta qabul qilish dozasi

55- §. «Species» so‘zining ishlatilishi

Species – yig‘ma (dori turi) so‘zi ko‘plikda ishlatiladi, shuning uchun sifatlar ham shu ot bilan ko‘plikda moslanadi.

Masalan: ko‘krak yig‘masi –
Nom. species pectorales
Gen. specierum pectoralium

Shunga muvofiq retseptlarda yig‘malar nomi qaratqich kelishik ko‘plikda yoziladi.

Masalan: Recipe: Specierum laxantium 100,0

**56- §. Quyidagi yig'malar nomini
yod oling!**

- species(erum) aromaticae(arum) – xushbo'y yig'ma
(choy)
- species(erum) antiasthmaticae(arum) – astmaga qarshi yig'ma
(choy)
- species(erum) carminativae(arum) – yel haydovchi yig'ma
(choy)
- species(erum) cholagogae(arum) – o't haydovchi yig'ma
(choy)
- species(erum) diureticae(arum) – siydik haydovchi yig'ma
(choy)
- species(erum) laxantes(ium) – ich suradigan yig'ma
(choy)
- species(erum) pectorales(ium) – ko'krak yig'masi
(choy)
- species(erum) sedativae(arum) – tinchlantiruvchi yig'ma
(choy)
- species(erum) stomachicae(arum) – me'da (oshqozon) yig'masi
(choy).

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Kun, taxir maza, ishlatish, qayin, qirqbo'g'im, po'stloq.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
species – yig'ma	V	f	speciei – yig'maning	species – yig'malar	specierum – yig'malarning

2. Quyidagi sifatlar yordamida yig'malar nomini yasang va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) diureticus, a, um
- 2) amarus, a, um
- 3) laxans, ntis
- 4) antiasthmaticus, a, um
- 5) expectorans, ntis
- 6) pectoralis, e.

3. Yig'ma(choy)lar tarkibini lotin tiliga tarjima qiling.

1. Yel haydovchi yig'ma tarkibi:

Qalampir yalpiz bargi — 33.3 g.

Fenxel mevasi — 33.3 g.

Valeriana ildizpoyasi bilan ildizi

2. Ishtaha ochuvchi yig'ma tarkibi:

Achchiq shuvoq(ermon) yer ustki qismi — 80 g.

Bo'ymadoron yer ustki qismi (yoki guli) — 20 g.

3. Tomoqni chayish uchun yig'ma tarkibi:

Jo'ka guli — 40 g.

Moychechak guli — 60 g.

4. 2-sonli ko'krak yig'masi tarkibi:

Oqqaldirmoq bargi — 40 g.

Zupturum bargi — 30 g.

Qizilmiya ildizi — 30 g.

5. 3-sonli ko'krak yig'masi tarkibi:

Gulxayri ildizi — 40 g.

Qizilmiya ildizi — 40 g.

Fenxel mevasi — 20 g.

4. Noto'g'ri tarjima qilingan atamalarni toping.

Nuphar luteum, rhizoma cum radicibus Valerianae, folium Digitalis, rhizoma Eistorta, herba Ledum palustris, fructus Capsicum, semina Schizandri, herba Centauriae.

5. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. In baccis Oxycocci vitaminum C continetur.

2. Species ex foliis, radicibus, herbis et fructibus plantarum praeparantur.
 3. Species sunt aromaticae, diureticae, cholagogae et ceterae.
 4. Infusum herbae Artemisiae absinthii ut amarities adhibetur.
 5. Species pectorales ut remedium expectorans adhibentur.
- 6. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.**
1. Recipe: Herbae Adonidis vernalis 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: 1 stakan suvga 1 xaltachadan solib
damlansin va kuniga 3 marta
1 osh qoshiqdan ichilsin.
 2. Recipe: Herbae Convallariae 1,0
Herbae Leonuri 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: 1 stakan qaynagan suvda
damlansin.
 3. Recipe: Foliorum Chamomillae
Herbae Millefolii
Herbae Absinthii
Foliorum Menthae piperitae
Foliorum Salviae ana 10,0
Misce, fiant species.
Da.
Signa: 1 stakan qaynagan suvga 1 osh
qoshiqdan solib damlansin.
 4. Recipe: Foliorum Digitalis 1,0
Foliorum Menthae piperitae 4,0

Fructuum Foeniculi 1,5

Misce, fiant species.

Da.

Signa: Har bir dozasini 1 stakan
qaynagan suvga solib damlansin
va kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

5. Recipe: Corticis Frangulae 3,0
Radicis Glycyrrhizae
Radicis Althaeae ana 2,0
Natrii tartratis 2,0
Kalii tartratis 2,0
Misce, fiant species.

Da.

Signa: 1 stakan qaynagan suvda damlab,
kuniga 2 marta 1 osh
qoshiqdan ichilsin.

7. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Evkalipt barglari 20,0

Shirinmiya ildizi

Zig'ir urug'lari teng miqdorda 15,0 dan

Fenxel moyi V tomchi

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: 1 osh qoshiq aralashmaga 1 stakan
suv qo'yib, 15 minut
qaynatilsin. Kuniga 2 marta yarim
stakandan ichilsin.

2. Ol: Gulxayri ildizi 40,0

Shirinmiya ildizi

Oqqaldirmoq barglari teng miqdorda 20,0 dan

Sigirquyruq gullari 10,0

Arpabodiyon mevasi 10,0

Natriy sulfat 15,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: 1 stakan suvga losh qoshiqdan solib
damlansin va kuniga

2 marta 1 stakandan ichilsin.

3. Ol: Qumloq bo'znochning gullari 40,0
Bo'ymadoron yer ustki qismi
Qalampir yalpiz barglari teng miqdorda
20,0 dan

Kashnich mevasi 25,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: Choyga o'xshatib damlansin.

4. Ol: Bangidevona barglari 2,0

Mingdevona barglari 3,0

Belladonna barglari 1,5

Kaliy nitrat 2,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Ber.

Belgila: Bronxial astmada chekish uchun.

Uyga vazifa

I. «V turlanishdagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Qaysi otlar V turlanishga kiradi?
2. V turlanishdagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen.Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?
3. V turlanishdagi otlar **Nom.Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo'shimcharga ega?
4. «species» so'zi qanday ishlatiladi?

II. Quyidagi jadval yordamida otlarning kelishik qo'shimchalarini yozing.

Causus	Singularis								
	I турл.	II турл.		III турл.			IV турл.		V турл.
	<i>f</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
Nom.									
Gen.									
Dat.									
Acc.									
Abl.									

Causus	Pluralis								
	I турл.	II турл.		III турл.			IV турл.		V турл.
	<i>f</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>f</i>	<i>n</i>	<i>m</i>	<i>n</i>	<i>f</i>
Nom.									
Gen.									
Dat.									
Acc.									
Abl.									

III. 54, 56 - §§ *dagi soʻz, soʻz iboralari va yigʻmalar nomini yod oling.*

IV. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) kalanaxoy shirasi
- 2) naʼmatak mevasi
- 3) koʻkrak yigʻmasi
- 4) tinchlantiruvchi yigʻma
- 5) boʻznochning gullari

V. *Quyidagi hikmatlarni yod oling!*

1. Potius mori quam foedari. —
Sharmanda bo'lgandan ko'ra, o'lgan yahshi.
2. Amat victoria curam. —
G'alaba tirishqoqlikni yahshi ko'radi.

VI. *To'g'ri o'qishni o'rganing!*

Epipodophyllotoxin, Paclitaxel, Dactinomycinum, Frugyl, Meractinomycin, Mitomycin, Rubomycini hydrochloridum, Cytonal, Daunorubicin, Doxorubicini hydrochloridum, Rastocin, Carminomycinum, Olivomycinum, Bruneomycinum, Iohexol, Rufocromomycin, Reumycinum, Bleomycinum, Bleomycetini hydrochloridum, Asparaginasum, Crasnitinum, Aldesleukin, Medrotestroni propionas, Permas-til, Prolotestonum, Phosphoestrolum, Estracyt, Fosfestrol, Chlortrianisenum, Chlortrianisoestrolum, Cyclotal, Polyes-tradiol Phosphate, Gestronolhexanoat, Medroxyprogesterone Acetate, Clinovir, Gestopuran, Tamoxifenum, Zitozonium, Fareston, Flutamide, Cebatrol, Cyproterone Acetate, Androcur, Cyprostat, Proscar, Permixon, Prostoplast, Buse-relin, Decapeptyl-Depot, Chloditanum, Lysodren, Noxyron, Triombrastum, Trasograf, Verografın, Iodamide, Bilignos-tum, Intrabilix, Biligrafın, Omnipaque, Ultravist, Biliminum, Natrii iopodas, Iopanoic Acid, Colepax, Panjopaque, Aethyotrastum.

18- DARS

**Mavzu: Farmatsevtik atama va retseptlarni
tarjima qilish**

1. Grammatika bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizni quyidagi savollar yordamida tekshirib ko'ring.

1. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?

2. I turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
3. II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
4. II turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.
5. III turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.
6. Undosh tipga qaysi otlar kiradi?
7. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?
8. Unli tipga qaysi otlar kiradi?
9. IV turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
10. IV turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
11. V turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
12. V turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
13. I–II turlanishdagi sifatlarga qaysi sifatlar kiradi?
14. I–II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
15. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
16. 3 qo'shimchali, 2 qo'shimchali va 1 qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
17. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
18. Tuzlar nomi lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
19. Retsept nechta qismdan tashkil topadi?
20. Retseptning lotincha qismi qanday yoziladi?
21. Qanday retseptlarni bilasiz?

2. Quyidagi so'zlarning turlanishini va rodini aniqlang.

Juniperus, flos, fructus, solutio, gemma, sal, Nuphar, usus, species.

3. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Bodom, qaynatma, ildizpoya, surtma, shira, po'stloq, kun, ko'knori, urug', pasta.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
species – yig'ma	V	f	speciei – yig'maning	species – yig'malar	specierum – yig'malarning

4. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1. me'da yig'masi
2. na'matak mevalari
3. ilonsimon toron ildizpoyasi
4. levzeyaning ildizpoyasi ildizlari bilan
5. jenshen ildizi
6. zupturum barglari
7. ravoch ildizining tabletkalari
8. jag'-jag'ning suyuq ekstrakti
9. mavrak barglari
10. cho'ktirilgan oltingugurt
11. stofant urug'lari
12. dorivor mavrak barglari

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Herbae Convallariae 1,0
Herbae Leonuri 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Bir stakan qaynagan suvda damlansin.
2. Recipe: Foliorum Digitalis 1,0
Foliorum Menthae piperitae 4,0
Fructuum Foeniculi 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Har bir doza 1 stakan qaynagan suvda damlansin.

Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Recipe: Radicis Althaeae 10,0
Radicis Glycyrrhizae 8,0
Foliorum Eucalypti 2,0
Olei Menthae piperitae III
Misce, fiant species.

Da.

Signa:

4. Recipe: Specierum antiasthmaticarum 8,0

Da.

Signa: Chekish uchun

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Angishivonagul barglari 1,0

Bahorgi adonisning yer ustki qismi 4,0

Ukrop mevalari 2,0

Arpabodiyon mevalari 1,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalarda 10 (son) ta berilsin.

Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvga
damlash kerak.

2. Ol: Marvaridgul yer ustki qismi

Bahorgi adonisning yer ustki qismi teng
miqdorda 3,0 dan

Do'lana mevasi 2,0

Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalardan 20 (son)ta ber.

Belgila: Har bir dozani 1 stakan qaynab turgan
suvda damlash kerak.

Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

3. Ol: Frangula po'stlog'i 3,0

Qizilmiya ildizi

Gulxayri ildizi teng miqdorda 2,0 dan

Natriy tetraboratdan 2,0

Kaliy tetraboratdan 2,0
Yigʻma hosil boʻlguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvda damlash
kerak.
Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

Oraliq baholashga tayyorlaning!

19- DARS

Mavzu: **Retseptlarda soʻzlarni qisqartirish**

51-§. Retseptlarda soʻzlarni qisqartirish

Retseptlardagi soʻzlarni quyidagicha qisqartirish mumkin:

1. Retseptlarda soʻzlarni qisqartirilganda koʻpincha ularning boshlangʻich qismi olinadi.

Masalan: semen – sem., folium – fol.

2. Agar soʻzning bosh qismida qatorasiga bir nechta undosh harflar kelsa, soʻzni qisqartirilganda ular saqlanib qoladi.

Masalan: emplastrum – empl., infusum – inf.

3. Retseptlarda tez-tez uchrab turadigan soʻz va iboralar bitta harfgacha qisqartirilishi mumkin.

Masalan: Misce – M., Da – D., Signa – S.

**52- §. Retseptlarda qisqartirishga ruxsat etilgan
so‘z va iboralar ro‘yxati**

So‘z yoki ibora	Qisqartirish	O‘zbekcha tarjimai
1	2	3
ana	āā	teng miqdorda, baravar
aquadestillata	aq.dest.	distillangan suv
cortex	cort.	po‘stloq
Da(Detur) tales doses numero	D.t.d.N.	shunday dozalardan..(son) ber.(berilgan bo‘lsin)
decoctum	dec.	qaynatma
dilutus	dil.	suyultirilgan
Divide in partes aequales	Div.in p.aeq.	Teng qismlarga bo‘l
emulsum	emuls.	emulsiya
emplastrum	empl.	malham
extractum	extr.	ekstrakt
fiat yoki fiant	f.	hosil bo‘lguncha
flos	fl.	gul
folium	fol.	barg
fructus	fr.	meva
guttas	gtt.	tomchi
herba	hb.	o‘t, yer ustki qismi

1	2	3
in ampullis	in amp.	ampulada
in capsulis	in caps.	jelatinli kapsulalarda
in charta cerata	in ch.cer.	mumlangan qog'ozda
in tabulettis	in tab.	tabletkalarda
infusum	inf.	damlama
linimentum	linim.	liniment
liquor	liq.	suyuqlik
massa pilularum	m.pil.	hab dori massasi
Misce. Misceatur.	M.	Aralashtir. Aralashtirmoq!
Misce. Da. Signa.	M. D. S.	Aralashtir. Ber. Belgila.
Misce, fiat.	M. f.	Hosil bo'lguncha aralashtir (birlik)
Misce, fiant.	M. f.	Hosil bo'lguncha aralashtiring (ko'plik)
mucilago	mucil.	shilliq
numero	N.	son
obductus	obd.	po'st bilan qoplangan
oleum	ol.	moy, yog'
pilula	pil.	hab dori
pulvis	pulv.	kukun
quantum satis	q. s.	keragicha

1	2	3
radix	r., rad.	ildiz
recipe	Rp.	ol
rhizoma	rhiz.	ildizpoya
Signa. Signetur.	S.	Belgila Belgilangan bo'lsin!
semen	sem.	urug'
siccus	sicc.	quruq
sirupus	sir.	sharbat
simplex	simpl.	oddiy
solutio	sol.	eritma
species	sp.	yig'ma
spissus	spiss.	quyuq
Sterilisa. Sterilisetur.	Steril.	Sterilizatsiya qilingan bo'lsin! Sterilizatsi yaqil.
stigmata	stigm.	tumshuqcha, og'izcha
suppositorium	supp.	shamcha
tabuletta	tab.	tabletka
tinctura	tinct.	nastoyka
unguentum	ung.	surtma

Mashqlar

1. Quyidagi retseptlarning to'liq shaklini yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Sol. Magnii sulfatis 10% 10 ml
Tinct. Valerianae
Tinct. Convallariae āā 15 ml
M.D.S: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
2. Recipe: Acidi salicylici 0.1
Ol. Helianthi 10.0
M.f.sol.
D.S.: Surtish uchun
3. Recipe: Sol. Ac. Hydrochlorici 2% 200 ml
Pepsini 3,0
Sir. simpl. 20 ml
M.D.S: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
4. Recipe: Tinct. Strychni 2 ml
Natrii hydrocarbonatis 4,0
Extr. Belladonnae 0,12
Aq. Menthae ad 200 ml
M.D.S.: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
5. Recipe: Emuls. Ol. Helianthi 180,0
Camphorae 2,0
Sirupi Sacchari 10 ml.
M.D.S. Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
6. Recipe: Inf.fol. Salviae 150 ml
Ac. Borici 2,0
M.D.S. Chayqash uchun
7. Recipe: Inf.hb. Thermopsidis ex 0,2:100 ml
Natrii benzoatis 2,0

- Sirupi Sacchari 5 ml
M.D.S: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
8. Recipe: Dec. rad. Althaeae 120 ml
Codeini 0,05
Natrii hydrocarbonatis 3,0
M.D.S.: Kuniga 3 marta 1 desert
qoshiqdan ichilsin.
9. Recipe: Extr. Belladonnae 0,015
Ichthyoli 0,1
Ol. Cacao 1,5
M.f. supp.
D.t.d. N3
S.: Kuniga 1 shamchadan qo'yilsin.
10. Recipe: Ac. lactici 0,05
Chinosoli 0.1
Ol. Cacao q.s. ut f. glob.
D.t.d. N20
S.: Ertalab va kechqurun 1 sharchadan
qo'yilsin.
11. Recipe: Tab. fol. Digitalis 0,05
D.S.: Kuniga 3 marta 1 tabletkadan ichilsin.
12. Recipe: Aq. Plumbi
Aq. dest. aa 50 ml
Ac. borici 2,0
M.D.S.:
- 2. Retseptlarni tarjima qiling va qisqartirib yozing.**
1. Ol: Glukoza eritmasi 40 %–200 ml
Nikotin kislota 0,25
Kodein 0,2
Valeriana nastoykasi 10 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
2. Ol: Kodein fosfat 0,3

- Natriy bromid 3,0
Marvaridgul nastoykasi 10 ml
Distillangan suv 5 ml.
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Ol: Jelatin 0,3
Shakar sharbati 10 ml
Distillangan suv 100 ml gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Har soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Gulxayri ildizi qaynatmasi 120,0
Kodein 0,05
Natriy gidrokarbonat 3,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: 5 yoshli bolaga kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
5. Ol: Salitsilat kislotasi 0,1
Kungaboqar moyi 10,0
Eritma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Surtish uchun.
6. Ol: Kuchala nastoykasi 2,0
Natriy gidrokarbonat 4,0
Belladonna ekstrakti 0,12
Yalpiz suvi 200,0 gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
7. Ol: Kanakunjut moyi
Shaftoli moyi teng miqdorda 25,0 dan
Oq mum 15,0
Lanolin 10,0
Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.

- Belgila: Quruq teriga surtish uchun.
8. Ol: Magniy sulfat eritmasi 10 %–100,0
Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi teng miqdorda 15,0 dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.
9. Ol: Afsonak yer ustki qismi damlamasi 2,0–100,0
Natriy benzoat 5,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: 5 yoshli bolaga kuniga 3 marta
1 choy qoshiqdan ichirilsin.
10. Ol: Xlorid kislota eritmasi 2%–200,0
Pepsin 3,0
Oddiy sharbat 20,0
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

Uyga vazifa

I. «Retseptlarda soʻzlarni qisqartirish» mavzusini oʻzlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib koʻring.

- 1) Retseptlardagi soʻzlar qanday qisqartiriladi?
- 2) Retseptlardagi qaysi soʻzlar bitta harfgacha qisqartiriladi?
- 3) Agar soʻzning bosh qismida qatorasiga bir nechta undosh harflar kelsa bu soʻz qanday qisqartiriladi?

II. Retseptlarda qisqartirishga ruxsat etiladigan soʻzlar va iboralar roʻyxatini yod oling.

III. Retseptlarni toʻliq shaklini yozing va oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Emuls. oleos. 100,0
Camphorae 1,0

Ol. *Menthae piperitae* gtt.V

M.D.S.: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

2. Recipe: Sol. Glucosi 40 %—200,0

Ac. ascorbinici 2.0

Ac. nicotinicici 0,25

Codeini 0,2

Tinct. Valerianae 10,0

M.D.S. Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

3. Recipe: Inf. r. *Althaeae* ex 6.0—180,0

Natrii benzoatis

Elixiris pectoralis āā 1.5

Sir. Sacchari 10,0

M.S.D.: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan
ichilsin.

IV. *To'g'ri o'qishni o'rganing!*

Chromolympotrastum, Propyliodonum, Propylis, Barii sulfas pro roentgeno, Sulfo-bar, Magnevis, Echovis, Gadoteridol, Levovis, Fluorescein — natrium, Pentagastrium, tabulettae «Limontar», Rifathyroinum, Thyro-liberin, Thyrefact, *Achillea asiatica*, *Betonica officinalis*, Dolamin, *Bryonia alba*, *Brassica juncea*, *Centaureum umbellatum*, *Chelidonium majus*, *Cichorium intybus*, *Cimicifuga dahurica*, *Juglans regia*, *Cinnamomum camphora*, *Menyanthes trifoliata*, *Leonurus quinquelobatus*, *Nerium oleander*, *Urtica dioica*, *Orthosiphon stamineus*, *Oxycoccus quadripetalus*, *Padus racemosa*, *Panax schin-seng*, *Pyrethrum cinerariaefolium*, *Quercus petraea*, *Divascol*, *Rauwolfia serpentina*, *Rhaponticum carthamoides*, *Rhus coriaria*, *Tussilago farfara*, *Viscum album*, *Avermex*, *Zea mays*, *Strychnos nux-vomica*, *Sternocard*, *Chlortetracyclinum*, *Polyvitaplex*, *Antia-naeminum*.

V. *Quyidagi maqolni yod oling.*

De lingua stulta incommoda multa. —

Be'mani so'zlar katta ko'ngilsizliklarga olib keladi.

20- DARS

**Mavzu: Farmatsevtik atama va retseptlarni
tarjima qilish**

1. *Grammatika bo'yicha o'zlashtirgan bilimlaringizni quyidagi savollar yordamida tekshirib ko'ring.*

1. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
2. I turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
3. II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
4. II turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchalarini ayting.
5. III turlanishdagi otlarning kelishiklar bo'yicha qo'shimchasini ayting.
6. Undosh tipga qaysi otlar kiradi?
7. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?
8. Unli tipga qaysi otlar kiradi?
9. IV turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
10. IV turlanishdagi otlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
11. V turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
12. V turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.
13. I—II turlanishdagi sifatlar qaysi sifatlar kiradi?
14. I—II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
15. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
16. 3 qo'shimchali, 2 qo'shimchali va 1 qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?

17. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

18. Tuzlar nomi lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?

19. Retsept nechta qismdan tashkil topadi?

20. Retseptning lotincha qismi qanday yoziladi?

21. Qanday retseptlarni bilasiz?

2. Quyidagi so'zlarning turlanishini va rodini aniqlang.

Juniperus, flos, fructus, solutio, gemma, sal, Nuphar, usus, species.

3. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Bodom, qaynatma, ildizpoya, surtma, shira, po'stloq, kun, ko'knori, urug', pasta.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
species – yig'ma	V	f	speciei – yig'maning	species – yig'malar	specierum – yig'malarning

4. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1. me'da yig'masi
2. na'matak mevalari
3. ilonsimon toron ildizpoyasi
4. levzeyaning ildizpoyasi ildizlari bilan
5. jenshen ildizi
6. zupturum barglari
7. ravoch ildizining tabletkalari
8. jag'-jag'ning suyuq ekstrakti
9. mavrak barglari
10. cho'ktirilgan oltingugurt
11. strofant urug'lari
12. dorivor mavrak barglari

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Herbae Convallariae 1,0
Herbae Leonuri 2,0
Rhizomatis cum radicibus Valerianae 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Bir stakan qaynagan suvda damlansin.
2. Recipe: Foliorum Digitalis 1,0
Foliorum Menthae piperitae 4,0
Fructuum Foeniculi 1,5
Misce, fiant species.
Da.
Signa: Har bir doza 1 stakan qaynagan suvda damlansin.
Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Radicis Althaeae 10,0
Radicis Glycyrrhizae 8,0
Foliorum Eucalypti 2,0
Olei Menthae piperitae III
Misce, fiant species.
Da.
Signa:
4. Recipe: Specierum antiasthmaticarum 8,0
Da.
Signa: Chekish uchun

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Angishvonagul barglari 1,0
Bahorgi adonisning er ustki qismi 4,0
Ukrop mevalari 2,0
Arpabodiyon mevalari 1,0
Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.
Shunday dozalarda 10 (son) ta berilsin.
Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvga damlash kerak.

2. Ol: Marvaridgul yer ustki qismi
Bahorgi adonisning yer ustki qismi teng
miqdorda 3,0 dan
Do'lana mevasi 2,0
Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.
Shunday dozalardan 20 (son)ta ber.
Belgila: Har bir dozani 1 stakan qaynab
turgan suvda damlash kerak.
Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Ol: Frangula po'stlog'i 3,0
Qizilmiya ildizi
Gulxayri ildizi teng miqdorda 2,0 dan
Natriy tetraboratdan 2,0
Kaliy tetraboratdan 2,0
Yig'ma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: 1 stakan qaynab turgan suvda damlash kerak.
Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

Leksik va grammatik mavzularni takrorlang!

ILOVA

Dori shakllari to'g'risida ma'lumot

Tabletta, ae, f – tabletka

Ichish, sirtidan ishlatish yoki in'yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan, dorivor moddalarni presslab olingan, dozalangan qattiq dori turi.

Tinctura, ae, f – nastoyka

Ichishga yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining qizdirilmagan va spirtli, spirt-suvli, spirt-efirli tiniq ajratmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turi.

Gutta, ae, f – tomchi (guttae – tomchilar)

Tomchi holida ichishga yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan suyuq dori turi.

Capsula, ae, f – kapsula

Ichish uchun mo'ljallangan ichiga dorivor vosita solingan g'ilofcha (jelatin, kraxmal yoki boshqa polimerlardan tayyorlangan)dan iborat bo'lgan dozalangan dori turi.

Pilula, ae, f – habdori

Ichishga mo'ljallangan, tarkibida dorivor vosita va yordamchi moddalar bo'lgan bir xil plastik massadan tayyorlangan sharcha holiday dozalangan qattiq dori turi.

Pasta, ae, f – pasta

Tarkibida 20–25 % dan ortiq kukun holdagi moddalar bo'lgan surtma.

Sirupus, i, m – sharbat

Ichish uchun mo'ljallangan, qandning suvdagi konsentrlangan eritmasidagi dorivor moddalarning eritmasidan iborat suyuq dori turi.

Infusum, i, n – damlama va

decoctum, i, n – qaynatma

Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan dorivor o'simlik mahsulotining suvli ajratmasi yoki shu maqsad uchun maxsus tayyorlangan konsentrant eritmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turlari.

Damlama va qaynatma bir-biridan tayyorlash usuli (olov ustida yoki suv hammomida qizdirish va keyinchalik damlash vaqti) bo'yicha farq qiladi.

Extractum, i, n – ekstrakt

Ichishga yoki sirtidan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining konsentrlangan ajratmasidan iborat bo'lgan dori turi.

Emulsum, i, n – emulsiya

Ichish, sirtidan ishlatish yoki in'yeksiya qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro aralashmaydigan suyuqliklardan iborat dispers sistemadan tashkil topgan suyuq dori turi.

Unguentum, i, n – surtma

Sirtidan ishlatishga mo'ljallangan yopishqoq konsistensiyali yumshoq dori turi.

Linimentum, i, n – liniment

Suyuq surtma.

Suppositorium, i, n – shamcha

Tana bo'shlig'iga yuborish uchun mo'ljallangan, uy haroratida qattiq va tana haroratida eriydigan dori turi.

Emplastrum, i, n – malham

Sirtidan ishlatishga mo'ljallangan, tana haroratida yumshash va teriga yopishish qobiliyatiga ega bo'lgan plastik massa holdagi yoki yassi narsa ustiga surtilgan o'sha plastik massa holdagi dori turi.

Granulum, i, n – granula

Ichish uchun mo'ljallangan, yumshoq, silindrsimon yoki boshqacha shaklli bir xil bo'lakchalar (zarrachalar, donachalar) dan tashkil topgan qattiq dori turi.

Aërosolum, i, n – aërozol

Gaz yoki gazlar aralashmasidan iborat dispers muhitdan, qattiq modda zarrachasi yoki suyuqlikdan iborat dispers fazadan tashkil topgan, maxsus qolip yordamida olinadigan dispers sistemali dori turi.

Briketum, i, n – briket

Presslash yuli bilan yirik maydalangan ma'lum miqdordagi dorivor o'simlik mahsulotidan tayyorlangan dozalangan dori turi.

Pulvis, eris, m – kukun

Ichish, sirtidan ishlatish yoki in'yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan kukun holdagi qattiq dori turi.

Solutio, onis, f – eritma

